

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI**  
**(Eng qadimgi davrlardan islomgacha bo'lgan adabiyot)**

**GULISTON – 2020**

**M.MAMATQULOV.** “O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan islomgacha bo‘lgan adabiyot)” fanidan o‘quv qo‘llanma. Guliston-2020. 91 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, unda islomgacha bo‘lgan turkiy yozma adabiyotning taraqqiyotiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, undan auditoriyada o‘tiladigan o‘quv mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar), mustaqil ravishda o‘rganishga tavsiya qilingan mavzular, ulardagi ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan savollar va bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar o‘rin olgan bo‘lib, tegishli adabiyotlar ro‘yxatlari ham mavjud.

Данное учебное пособие подготовлено для студентов направления 5120100 - Филология и обучение языкам (узбекский язык), в котором представлена информация о развитии доисламской тюркской письменности. Кроме того, в нем представлены темы учебных занятий (лекции, семинары и практические занятия) и самостоятельных работ, вопросы, подлежащие рассмотрению в данных занятиях, и методические рекомендации по их выполнению, а также перечень соответствующей литературы.

This teaching guide is prepared for students of the direction 5120100 - Philology and language training (Uzbek language), which provides information about the development of pre - Islamic Turkic writing. In addition, it presents the topics of training sessions (lectures, seminars and practical classes) and smaostoyatelnyh works, issues to be considered in these classes, and guidelines for their implementation, as well as a list of relevant literature.

## KIRISH

Istiqlol yillari mobaynida hayotimizning ijtimoiy va madaniy sohalarida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tarixni xolisona o‘rganish, tarixiy shaxslarga to‘g‘ri baho berish, mafkuraviy tazyiqlar va davrga moslashtirish natijasida yetarli bahosini olmay kelgan buyuk allomalarimiz, adiblarimiz ijodiga yangicha yondashish, sog‘lom nuqtai nazar bilan qarash imkoniyatlari tug‘ildi.

Bunday yangicha qarashlarning ilk turkiy yozma adabiyotning rivojlana boshlagan davri hamda bu davrning namunalari bo‘lgan asarlarga nisbatan ham tug‘ilishi tabiiydir.

Ma’lumki, turkiy xalqlar yozma adabiyotining vujudga kelishi uzoq tarixga ega. Uning shakllanishida turkiy qavmlar e’tiqod qilgan diniy oqimlar ham katta rol o‘ynagani shubhasiz. Chunki qadimgi turkiy adabiyot doimo o‘z davridagi oqimning mahsuli sifatida maydonga kelgan. Qadimgi turkiy moniylik she’rlari, buddaviylik oqimi ta’sirida yaratilgan turkiy adabiyot namunalari shundan guvohlik beradi. Darhaqiqat, qadimgi turkiylar davridagi adabiyotning taraqqiyoti shomonlik, moniylik va buddizm kabi diniy oqimlar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur oqimlar ta’siridagi ijod namunalari qadimgi turkiy adabiyotning qonuniyatları, turkiy she’riyatning shakllanishi va ibtidosini o‘rganish hamda tasavvur qilishga yordam berishi shubhasiz.

Moniylik va buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligida, balki umumturkologik yo‘nalishda ham yetarli darajada o‘z bahosini olgan emas. Shu sababdan turkiy adabiyotning uzlusiz rivoj topib borganini, shuningdek, janrlar takomili va badiiy tasvir vositalari taraqqiyotidagi aloqadorlikni tadqiq etish va ular bilan keng kitobxonlar ommasi, xususan, bo‘lajak filolog mutaxassislarni tanishtirish davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘quv qo‘llanmani tayyorlashda Rashid Rahmati Aratning 1991-yil Anqarada nashr etilgan “Qadimgi turkiy she’riyat” (“Eski Türk Şiiri”) kitobi, shuningdek, qadimgi turkiy adabiyot yo‘nalishida tadqiqot olib borgan

S.Y.Malov, I.V.Stebleva, A.Qayumov, N.Rahmonov, B.To‘xliev kabi olimlarning tadqiqotlaridan keng foydalanildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan akademik litsey hamda umumiyl o‘rtalim maktablarining ona tili va adabiyot o‘qituvchilari, shuningdek, qadimgi turkiy adabiyot muammolari bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

## **ISLOMGACHA BO‘LGAN DAVR ADABIYOTI**

### **Asosiy savollar:**

1. Islomgacha bo‘lgan davr adabiyotini o‘rganishning maqsad va vazifalari
2. Qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari

### **Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Turk atamasi, turkiylar, og‘zaki adabiyot, yozma adabiyot, mif, afsona, Turon, so‘g‘d yozuvi, moniylik yozuvi, uyg‘ur yozuvi

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Ma’lumki, turkiy yozma adabiyotning shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Nima uchun sho‘rolar davrida qadimgi turkiy adabiyotni keng miqyosda o‘rganish va targ‘ib etishga keng yo‘l berilmadi?

2. Turkiy yozma adabiyotning taraqqiyotida turkiy qavmlar e’tiqod qilgan diniy oqimlar ham katta rol o‘ynagani ko‘rinadi. Buning sababi nimalarda deyish mumkin?

**1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga o‘zbek adabiyoti tarixining islomgacha bo‘lgan davrini o‘qitish orqali ularda o‘z adabiyoti, madaniyati va qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. Islomgacha bo‘lgan davrdagi turkiy adabiyotni idrok etadi.
- 1.2. Qadimgi turkiy adabiyot tarkibi bilan tanishadi.
- 1.3. Qadimgi turkiy adabiyotning manbalarini izohlaydi.

### **1- asosiy savolning bayoni:**

Qadimgi turkiy adabiyot asosan islomgacha bo‘lgan turkiy yozma adabiyotning tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganadi va o‘rgatadi. Turkiylar qadimiy va boy madaniyatga ega xalqlardan biridir. Ular jahon ilm-u fani, san’ati va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shti, buyuk olimlarni, san’atkorlarni, yozuvchi va shoirlarni yetishtirdi. Turkiylar keyinchalik mustaqil millat va xalq sifatida shakllangan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, boshqird, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur, ozarbayjon, gagauz, usmonli turk, tatar, yoqut va boshqa xalqlarning

ajdodlaridir. Shuning uchun ham qadimgi turkiylar qoldirgan ulkan madaniy va adabiy meros bu xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblanadi.

Qadimgi turkiylar o‘z tili, madaniyatiga ega bo‘lishgan. Ularga aloqador dastlabki yozma manbalar VI-VIII asrlarga tegishlidir. Qadimgi turkiy adabiyotning namunalari sharqda O‘rxun-Enasoy obidalarida, shimoliy-g‘arbda xristian dini shaklidagi yozuvlarda, janubiy-sharqda budda dinida so‘g‘d, uyg‘ur yozuvlarida, moniylik dinida moniy va uyg‘ur yozuvlarida, keyinroq islom dinida arab yozushi bilan yozilgan.

Ma’lumki, eramizdan oldingi VI-V asrlar boshlarida O‘rta Osiyoda ilk qadimi davlatlar vujudga kelgan edi. Ularga qarshi Eron podsholarining (Kir) yurishlari qadimi afsonalar (To‘maris, Shiroq)da ham aks etgan. VI-VIII asrlarda hukmronlik qilgan birinchi turk xoqonligi 630 - 680-yillarda inqirozga yuz tutgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida buning bir qator sabablari ochib berilgan. Qadimgi turkiy adabiyot turkiylarning eng qadimgi zamonlardan boshlab islomgacha bo‘lgan davrda yaratgan badiiy adabiyotini o‘z ichiga oladi. Bu badiiy ijod namunalarida ularning o‘ziga xos dunyoqarashi, orzu va intilishlari aks etgan.

Qadimgi turkiylar yuksak madaniyatga ega bo‘lishgan. Ular dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bilan ko‘proq shug‘ullanishgan. Ayniqsa, yilqichilik ular hayotida asosiy o‘rin tutgan. Bu ko‘pgina mifologik, folklor va tasviriy san’at asarlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Savdo aloqalarining kengayishi turli tillar va yozuvlarning ham keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Oromiy va yunon yozuvlari iste’molda edi. Oromiy yozuvidan shakllangan so‘g‘d va xorazmiy yozushi ham qo‘llanila boshlaydi. Bu yozuv yodgorliklari tangalar, muhrlar, kumush buyumlar va ayrim hujjatlarda aks etgan.

Turkiy run yozuvining ham keng iste’molda bo‘lgani O‘rxun-Enasoy obidalari orqali yaxshi ma’lum. Islomdan oldin turkiylar orasida keng qo‘llangan yana bir yozuv - uyg‘ur yozuvidir. U VI-VIII asrdan boshlab qo‘llanila boshlagan. Uyg‘ur yozushi arab yozushi bilan yonma-yon tarzda XV asrgacha, uyg‘urlar orasida esa XIX asrgacha iste’molda bo‘lgan. Mazkur yozuvda bitilgan

buddaviylik, moniylik, xristian dinlariga oid axloqiy-ta’limiy asarlar, huquqiy va moliyaviy hujjatlar saqlanib qolgan.

O‘rta Osiyoning yozma adabiyoti, garchi bugungi kunda ba’zilar bu adabiyotning qadimdan uzluksiz davom etib kelganiga shubha bilan qarasalar-da, shu zaminning xalqi bilan barobar qadimiylari – bundan bir yarim ikki ming yillar oldin shakllangani o‘z isbotini topmoqda. Chunki adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti xalqning har tomonlama rivoji bilan baravar davom etadi. Zotan, badiiy tafakkur imkoniyatlari etnik, ijtimoiy-siyosiy jarayonni belgilovchi omillardan biri bo‘lgani shubhasizdir. Badiiy tafakkur tushunchasi diniy oqimlar, xudolar, mifologik qahramonlar, tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi mif va afsonalarni qamrab olib, mazkur omillar qadimgi turkiy adabiyotning yuzaga kelishiga zamin bo‘ldi. Qadimgi turkiy adabiyot borasida so‘z ketganda, uning manzarasi keng ekanligini unutmaslik lozim. O‘rxun-Enasoy yozuvidanagi yodgorliklar qadimgi turkiy adabiyotning bir qatlami ekanligini hisobga olgan holda O‘rta Osiyoda faol harakatda bo‘lgan zartushtiylik, shomonlik, moniylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar ham alohida-alohida oqimdagilari turkiy yozma adabiyotni shakllantirganligini e’tibordan soqit qilmaslik zarur. Shu sababli endilikda qadimgi turkiy adabiyotga boshqacharoq nuqtai nazardan, kengroq qarash maqsadga muvofiqdir. Mazkur oqimlarning hududimizda paydo bo‘lish tarixi turlicha: shomonlik oqimi Markaziy Osiyoda azaldan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, buddaviylik diniy oqim sifatida milodning boshlarida kirib kela boshladi. Moniylik oqiminining kirib kelishida ham o‘ziga xos omillar mavjud. Shu tariqa qadimgi turkiy adabiyotni alohida davrlashtirgan holda o‘rganish va baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Qadimgi turkiy adabiyot atamasi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
- 1.2. Islomgacha bo‘lgan davr adabiyotini o‘rganishdan maqsad nimalardan iborat?
- 1.3. Qadimgi turkiy adabiyotning manbalari haqida nimalarni bilasiz?

**2-asosiy masala bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga adabiy davrlashtirish haqida ma’lumot berish orqali adabiy hodisalarga tarixiy nuqtai nazardan baho berishga o‘rgatadi.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 2.1. Talabalar adabiy davrlashtirish haqida ma’lumot oladi.
- 2.2. Davrlashtirishning adabiyot ilmidagi zarurat ekanligini biladi.
- 2.3. Davrlashtirishning tarix bilan aloqadorligiga amin bo‘ladi.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Turkiy adabiyot tarixini tadrijiy tarixiy jarayon tarzida tasavvur etish uchun davrlashtirish taqozo etiladi. Buning uchun turkiy adabiyot tarixini turkiylarning ijtimoiy-siyosiy tarixi, ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti bosqichlari asosida davrlashtirish maqbuldir. Darhaqiqat, adabiyot tarixi xalq tarixining ajralmas bir qismidir. Badiiy adabiyotning taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Sho‘ro davrida milliy adabiyotni davrlashtirish muammosiga ham sog‘lom tafakkur nuqtai nazardan yondoshilmay, adabiyotning san’at va estetik hodisa ekanligi hisobga olinmadi. Shuning uchun ham adabiyotning taraqqiyoti to‘lig‘icha jamiyat tarixidagi davrlarga mos keladigan bosqichlardan iborat deb qaraldi. Adabiy shaxslarga munosabat, badiiy matnlar tahlili va talqini bobida ham sinfiy-partiyaviy yondoshuv ustuvor bo‘ldi. Bu nosog‘lom va g‘ayriilmiy yondoshuvlarni bartaraf etish, bo‘lajak filologlarning adabiyotshunoslikdagi eng so‘nggi va sog‘lom ilmiy qarashlardan xabardorligini ta’minlash uchun ham adabiyot tarixiga yangicha yondoshish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish uchun mezon sifatida ma’lum bir adabiy-tarixiy jarayonni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Masalan, islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiy jarayon islom davridagi adabiyotdan ham mazmunan, ham paydo bo‘lish jihatidan farq qiladi. Islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiyot shomonlik, buddaviylik, moniylik diniy oqimlarisiz rivojlanishi mumkin emas edi. Qolaversa, islomdan oldingi adabiy yodgorliklarga tom ma’nodagi yozma adabiyot sifatida qaralmadi. Bu davrdagi adabiy yodgorliklarning o‘ziga xos mezonlari

borligi va ana shu mezonlar davrlashtirishning asosi bo‘lishi kerakligi bugungi kunda ma’lum.

Badiiy tafakkur tushunchasi diniy oqimlar, xudolar, mifologik qahramonlar, tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi mif va afsonalarni qamrab olib, mazkur omillar qadimgi turkiy adabiyotning yuzaga kelishiga zamin bo‘ldi. Qadimgi turkiy adabiyot borasida so‘z ketganda, odatda aksariyat hollarda O‘rxun-Enasoy yozuvidagi yodgorliklar tilga olinadi. Lekin qadimgi turkiy adabiyot faqat shu yodgorliklar bilan cheklangan emas. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning bir qatlami xolos. O‘rta Osiyoda faol harakatda bo‘lgan shomonlik, moniylik, budda kabi diniy oqimlar ham alohida-alohida oqimdagи turkiy adabiyotni shakllantirdi. Shu boisdan endilikda qadimgi turkiy adabiyotga kengroq qarash maqsadga muvofiqdir. Demak, qadimgi turkiy adabiyot shakllanishida turkiy qavmlar e’tiqod qilgan diniy oqimlar ham katta rol o‘ynagani shubhasiz. Shunday ekan, yuqoridagilardan kelib chiqib, qadimgi turkiy adabiyotni quyidagicha tasnif qilib o‘rganish mumkin:

1. Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.
2. Shomonlik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.
3. Buddaviylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.

Monylik, shomonlik, buddaviylik diniy oqimlarining Markaziy Osiyoda paydo bo‘lish tarixi turlichadir. Xususan, shomonlik Markaziy Osiyoda azaldan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, buddaviylik diniy oqim sifatida milodning boshlarida kirib kela boshladi. Moniylik oqimining kirib kelishida ham o‘ziga xos omillar mavjud. Shu tariqa bu oqimlardagi adabiyotning har birini qadimgi turkiy adabiyotning alohida-alohida ko‘rinishlari sifatida baholash lozim.

Xullas, turkiylarga aloqador yozma adabiyotning shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Hozircha bizga ma’lum bo‘lgan turkiy yozma adabiyot namunalari turkiylar e’tiqod qilgan diniy oqimlar ta’sirida vujudga kelgan va ular VI-VIII asrlarga mansub deb qaraladi.

### **Nazorat savollari:**

- 2.1. Adabiy davrlashtirish nima?

- 2.2. Davrlashtirishning ahamiyati bormi?
- 2.3. Qadimgi turkiy adabiyot qanday tasnif qilinadi?
- 2.4. Har bir adabiy davr uchun tegishli xususiyatlarni ayta olasizmi?

**Amaliy mashg‘ulot mavzusi: Qadimgi mif va afsonalar**

**Darsning maqsadi:** Turkiy adabiyotning shakllanishi va keyingi davrlardagi taraqqiyoti to‘g‘risida tasavvur hosil qilish.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Dastlabki turkiy og‘zaki adabiyot namunalarini tahlil qiladi.
2. Turkiy yozma adabiyotning jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtarak jihatlariga izoh beradi.
3. Qadimgi turkiy adabiyotning shakllanish omillari va taraqqiyotiga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** Qadimgi turkiy adabiyot namunalari nashr qilingan kitoblar va ular xususidagi ilmiy-ma’rifiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Qadimgi turkiylarning mif va afsonalari haqida ma’lumot bering.
2. Turkiylar e’tiqod qilgan dinlar mohiyatini batafsil o‘rganing.
3. Turkiylarning og‘zaki adabiyot namunalarini tahlil qiling.
4. Turkiy og‘zaki va yozma adabiyot munosabati masalalariga baho bering.
5. Turkiy yozma adabiyotning taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan omillarni aniqlang.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 3-123
2. Qadimiy hikmatlar (To‘plovchi: N.Rahmonov). Toshkent, Adabiyot va san’at, 1987. B. 11-15
3. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev). 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 3-30

**Qo‘sishma adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 3-26

2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005.
3. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. Toshkent, Cho‘lpon, 1995.

## **MONIYLIK OQIMIDAGI QADIMGI TURKIY ADABIYOT**

### **Asosiy savollar:**

1. Moniylik oqimi va mifologiyasi
2. Moniylik oqimi ta’siridagi turkiy she’riyat

### **Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Moniy, moniylik diniy oqimi, “Xuastuanift”, mif, mifologiya, Xo‘rmuzd, Shmnu, Zervan, kun va oy tangrilari.

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Moniylik oqimining asoschisi bo‘lgan Moniy ibn Fatak dastlab Erondan quvg‘in qilindi va keyinchalik o‘ldirildi. Buning sabablari nimalarda deyish mumkin?
2. Ma’lumki, moniylik oqimi o‘z davrida ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Buning sabablari nimalarda ko‘rinadi?

**1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga moniylik oqimining shakllanishi, uning turkiy yozma adabiyotga ta’siri hamda moniylik mifologiyasi haqida ma’lumot berish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. Moniylik oqimining paydo bo‘lishi, mohiyati va taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi.
- 1.2. Moniylik oqimining turkiylar muhitiga kirib kelishi sabablarini izohlaydi.
- 1.3. Moniylikning o‘ziga xos mifologiyasiga baho beradi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Monylik oqimi Moniy ibn Fatak (216-276) nomi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi. U yaratgan ta’limotning mohiyatiga ko‘ra, olam ezgulik bilan yovuzlik, nur bilan zulmat shafqatsiz kurashadigan maydondir. Bu kurashning

oqibati, shubhasiz, ijobiy natija bilan tugaydi. Moniyning hayoti va butun ta’limoti u yaratgan “Barhayot Injil”, “Shapurakan”, “Jonlanish xazinasi”, “Sirlar kitobi”, “Pragmatey”, “Maktublar” kabi asarlarida o‘z aksini topgan. Moniylik ta’limoti ma’lum ma’noda zardushtiylikka tayanadi. Olamning paydo bo‘lishi va tuzilishi haqidagi qarash zardushtiylik va moniylikda bir asosga – Xo‘rmuzdda mujassamlashgan Ezgulik va Nurga, Axriman (moniylik oqimida Shmnu)da mujassamlashgan Zulmat va Yovuzlikka tayanadi. Moniy ta’limoti o‘z davrida hayotga yaqin bo‘ldi, shuning uchun ham ming yilcha yashadi hamda nafaqat O‘rta Osiyo va Eronda, balki Yevropadan Xitoygacha bo‘lgan keng hududda yoyildi. VIII asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan Uyg‘ur hoqonligida moniylik yaqin yuz yilcha rasmiy din sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

“Xuastuanift” moniylik oqimi ta’sirida paydo bo‘lgan asardir. “Xuastuanift” asarining uchta nusxasi mavjud. London va Berlin nusxasi – moniy yozuvida, Sankt-Peterburg nusxasi esa eski uyg‘ur alifbosida yozilgan. Bular orasidan to‘lig‘i London nusxasi bo‘lsa, noto‘lig‘i Berlin nusxasi hisoblanadi. Asarning yaratilgan davrini V.Radlov V asr deb ko‘rsatsa, S.E.Malov VII asr deb qayd etadi. Moniylik oqimining mavqeい va asarning til xususiyatlariga asoslanib xulosa chiqariladigan bo‘lsa, V.Radlovning fikri haqiqatga yaqin bo‘lib chiqadi. 1963-yilda Sankt-Peterburglik L.Dmitriyeva har uchala nusxa asosida “Xuastuanift”ning yig‘ma matnini yaratgan.

“Xuastuanift” moniylikni targ‘ib qilishdangina iborat emas, balki bu oqimning tub mohiyati va kelib chiqishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asar 15 bo‘limdan iborat bo‘lib, unda epik ruhni ham, didaktik mazmunni ham kuzatamiz. Asarda Xo‘rmuzdning osmondan tushishidan boshlab, Moniy izdoshlarining bir jamoaga uyushganlari va ularning qilgan gunohlari e’tirof etiladi. Garchi xudodan gunohlarini kechirishni so‘rab qilgan ibodatlari bilan yakunlansa-da, tavba va ibodat moniy jamoasi a’zolarining doimiy hamrohi bo‘lib qoladi.

“Xuastuanift”da Xo‘rmuzd olamning ibtidosidir. U ezgulik uchun kurashga boshchilik qiladi. “Xo‘rmuzd xudo beshta xudo bilan birga hamma xudolarning pokligi uchun iblislarga qarshi kurashga otlanib, osmondan tushdi”. Asarni

Xo‘rmuzdning faoliyati bilan boshlashdan maqsad – olamning ibtidosi azalda ezgulikdan iborat edi, olam ezgulik uchun yaratilgan edi, jonzotlar ruhiyatida ezgulik va oljanoblik hukmron edi, degan o‘gitni bosh o‘ringa qo‘yishdan iboratdir.

Shmnu “Xuastuanift”da yovuzlik timsoli hisoblanadi. Asarda olamning ibtidosi tasvirida Xo‘rmuzd va Shmnu bir-biriga qarama-qarshi kuch ekanligi tasvirlanadi. Shmnu paydo bo‘lgach, nur bilan zulmat qo‘silib ketdi. Ularni ajratib bo‘lmay qolgandan keyin Shmnu va yana beshta iblis bilan kurashish uchun Xo‘rmuzd osmondan tushdi. Ammo Shmnu o‘z ishini qildi, ya’ni insoniyatning ongini, niyatini iblis tomonga burib, ularni ruhsiz qilib qo‘ydi. Ruhsizlik – xudodan uzoqlashishga, faqat tana sevgisi bilan yashashga olib keladi, degan xulosa “Xuastuanift”da bosh o‘rin tutadi.

Moniylik qonunlarida ruhiy olam bosh o‘ringa qo‘yilgani bejiz emas. Moddiy olam esa yovuzlik va zulmatni uyg‘unlashtiradi. “Xuastuanift”ning maqsadi ham bitta – odamzodning ruhiyatidagi nurni, ya’ni ezgulikni moddiy olamdagи zulmatdan qutqarish lozim. Moniy – bu yo‘lda najotkor, uning qonunlari ham ezgulik yo‘lini ko‘rsatuvchi vositadir. Faqat tavba-tazarru va gunohlarni e’tirof etish insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga solishi mumkin. Shuning uchun ham “Xuastuanift”ning har bir bo‘limi so‘nggida Moniy jamoasi a’zolari ilgari qilgan gunohlari uchun tavba qilib, Xo‘rmuzddan gunohlarini kechirishini so‘raydilar.

Moniylik oqimi g‘oyasiga ko‘ra, dastlab nur kuchlari bilan zulmat kuchlari o‘rtasida haqiqiy muvozanat mavjud edi. Nur kuchlari Zervanga tegishli bo‘lib, Ulug‘vorlik va Nur otasi, Nur shohligi deb nom olgan. Zulmat hukmronligini esa Nur shohligi o‘ziga jalb etgach, muvozanat buzilgan. Nur otasi (Xo‘rmuzd) Zulmat hukmronligi hujumidan xavfsirab, yer yuziga ruhiy kuchlarini yuboradi. Zulmat kuchlari bilan Nur otasi yuborgan ruhiy kuchlar o‘rtasida jang bo‘ladi. Jangda Nur kuchlari mag‘lub bo‘ladi va Nur bilan Zulmat qorishib ketadi. Nur otasi bu qorishma ichidan o‘zi yuborgan ruhiy kuchlarni ajratib olish uchun ko‘rinadigan moddiy olamni yaratishi kerak edi. Shuning uchun shikastlangan ibislarning terisidan – o‘n qavat osmonni, suyaklaridan - tog‘larni, go‘shtlari va

axlatlaridan esa yerni yaratadi. Zulmat kuchlaridan qutqarib olingan nurning bir qismidan oy va quyosh yaratiladi. Bu ikkalasi Nurni ozod qilib, Nur otasining taxtiga ko‘chiradi. So‘ngra, Nur kuchlari ham ozod qilina boshlaydi. Darvoqe, yulduzlar, olov, shamol nur kuchlariga mansubdir. Shuning uchun ham moniylik ta’limotida oy va quyoshga eng buyuk nur taratuvchilar, najotkorlar sifatida e’tiqod qilingan.

“Avesto”dagi va “Xuastuanift”dagi obrazlarning bir qator umumiy va juz’iy xususiyatlari mavjud. Xo‘rmuzd har ikkala manbada umumiylig kasb etadi, ya’ni u - Xudodir. Ammo “Xuastuanift”da Xo‘rmuzd hayotga ancha yaqinlashtirildi. Jamiki gunohlardan xalos bo‘lishning omili – Xo‘rmuzdni bilishdir, Xo‘rmuzdni bilish esa moniylik ta’limotiga e’tiqod qilish demakdir.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Moniylik oqimi qaysi davrlardan boshlab shakllana boshlagan?
- 1.2. Moniylik oqimining mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?
- 1.3. Moniy ibn Fatak haqida nimalarini bilasiz?
- 1.4. Moniylik oqimiga aloqador mifologik obrazlarni sanang.

**2-asosiy masala bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga moniylik she’riyatining yuzaga kelishi haqida ma’lumot berib, ular idrokida bu she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 2.1. Qadimgi turkiy moniylik she’rlarining yuzaga kelishi haqida so‘zlaydi.
- 2.2. Moniylik she’rlarini tahlil qiladi.
- 2.3. Moniylik she’rlarining janr xususiyatlariga baho beradi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Hozirgi mavjud manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, bizgacha she’riyatning turkiy yozma adabiyotdagi eng qadimgi namunalari Moniy va Budda muhitida yaratilgan badiiy ijod namunalari orqali yetib kelgan. Bizgacha yetib kelgan moniylik ta’siridagi ijod namunalari mazmunan madhiyalardan, diniy-axloqiy she’rlardan iborat. Mazkur she’rlarning yozilish vaqtida Turk xoqonligi tugab, uning o‘rniga turkiylarning eng katta qavmlaridan biri uyg‘urlarning

hokimiyatni egallagan davri - VIII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Darhaqiqat, dastlab Eronda shakllangan moniylik oqimi turkiy urug‘ va qabilalar orasidan Uyg‘ur xoqonligida rasmiy davlat dini darajasiga ko‘tarildi. Uyg‘urlar moniylikni “... qabul etib, o‘z madaniyat va hayotlarini bir qadar o‘zgartirdilar. Urxun alifbosi o‘rniga so‘g‘dcha asosida shakllangan yozuvni (uyg‘ur yozuvini) oldilar va qayd etish kerakki, ularning jangovarligi ancha susaydi”<sup>1</sup>.

Mazkur dinning qonun-qoidalari ko‘ra, odamlarga ozor berish va ularni o‘ldirish, hattoki, hayvonlarning go‘shtini yejish ta’qiqlangan. Shu sababli “... ilgari go‘sht bilan ovqatlanadigan xalq endi guruch bilan oziqlanadigan bo‘ldi. Ilgari qotillik ko‘p bo‘lgan mamlakatda endi faqat ezgulik hukm suradi. Ko‘rinadiki, moniylik ta’limoti qabilalar, qolaversa, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ichki nizolarning oldini olishga, xalqlarni tinch-totuv yashashga undovchi bir chaqiriq edi”<sup>2</sup>.

Moniylik she’rlarida o‘sha davrlarda yashagan turkiylarning dunyoqarashi, urf-odatlari, olamning tuzilishi to‘g‘risidagi tasavvurlari, diniy-axloqiy qarashlari o‘z aksini topgan. Bu tushuncha va tasavvurlar Moniy asos solgan dinning qonun-qoidalari, mezonlariga tayanadi. Ayniqsa, Tong tangrisiga bag‘ishlangan madhiyada shunday xususiyat ko‘zga tashlanadi:

Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi,
Tang tengri ozi kelti.	Tong tangrisi o‘zi keldi.
Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi.
Tang tengri ozi kelti <sup>3</sup> .	Tong tangrisi o‘zi keldi.

She’rning dastlabki bandi Tong tangrisining timsolini gavdalantiradi. Tong tangrisi timsoli mifologik mazmun kasb etib, xuddi jonli mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. Bu esa mifologik fikrlashning eng qadimiy bosqichidagi xudo va tabiat uyg‘un holda tasavvur qilinganligining bir ko‘rinishi hisoblanadi. She’r

<sup>1</sup> Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. (Tarjimon: Ulug‘bek Abdulvahob). -Т.: Чўлпон, 1995. –Б. 67.

<sup>2</sup> Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. -Т.: Халқ мероси, 1993. –Б. 104.

<sup>3</sup> Arat R.R. Eski türk şiiри. –Ankara: 1991. –S. 8. (Bundan keyingi misollar ham mazkur kitobdan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi).

davomida tasvirlangan kun va oy tangrilari esa Tong tangrisining bo‘lagidir. Shu sababli ham ular Tong tangrisining yordamchi xudolari sifatida kuylanadi.

She’r 20 misradan tashkil topgan bo‘lib, uning tuzilishida so‘z va misralar takrori asosiy rol o‘ynaydi. Beshinchi va oltinchi misralar xuddi naqorat vazifasini bajarib, aytilayotgan fikrga e’tiborni kuchaytirishga xizmat qilyapti. She’rdagi bo‘g‘inlar tarkibiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, ular o‘rtasida ham farqning mavjudligi ko‘zga tashlanadi va ularning miqdori 3 bo‘g‘indan 10 bo‘g‘ingachani tashkil etadi. Shuningdek, to‘rtlik va beshlik shakllari she’r bandlarini tashkil etgan hamda bir she’r tarkibida bandlarning xilma-xilligini hosil qilgan. Bunday hol boshqa ayrim moniylik she’rlarida ham kuzatiladi. Buning sababini, bizningcha, xalq og‘zaki ijodining ta’siri bilan izohlash lozim. Yozma adabiyotda esa “... she’r qanday band bilan boshlansa, shunday band bilan tugaydi, ya’ni qat’iy qonunlashgan sistemaga rioya qilinadi»<sup>4</sup>. Xalq og‘zaki ijodida bir she’r doirasida turli bandlardan foydalanish kuzatiladi. «Masalan, dostonlardagi bir she’riy bo‘lakda yoki monolog, dialoglarda ham ikkilik, ham uchlik, ham to‘rtlik yoki bir necha misrani o‘z ichiga olgan bandlarni qo‘llash mumkin, zero, bunday erkinlik xalq epik she’riyatining asosiy xususiyatidir»<sup>5</sup>.

Moniylik she’rlaridan ikkitasining muallifi ma’lum bo‘lib, ular - shoir Aprinchur tigin tomonidan yozilgan. Aprinchur tiginning shaxsiyati va ijodi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emas. Shoir qalamiga mansub she’rlardan biri to‘rtlik, biri esa uchliklar shaklida yaratilgan. To‘rtliklar tarzida yozilgan she’r madhiya bo‘lib, unda Tangrining sifatlari ulug‘lanadi:

Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur,  
Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur.  
Rednide yig mening edgu tengrim alpim bekrekim,  
Rednide yig mening tengrim alpim bekrekim.

(ET\$, 16-bet)

Bizim tangrimizning xo‘blig‘i javhardir, derlar,

<sup>4</sup> Райхонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар. -Т.: 1986. –Б. 39.

<sup>5</sup> Райхонов Ф. О‘sha kitob. –Б. 39.

Bizim tangrimizning xo‘blig‘i javhardir, derlar,  
Javhardan-da ustun mening a’lo tangrim, alpim, pahlavonim.  
Javhardan-da ustun mening a’lo tangrim, alpim, pahlavonim.

She’r 3 band - 12 misradan iborat. Yuqorida keltirilgan she’rdagi kabi unda ham so‘z va misralar takrori yetakchi xususiyatga ega. Har uchala bandning birinchi bayti dastlabki misralar takroridan tuzilgan. Bo‘g‘inlar miqdori esa 10 dan 15 gachani tashkil etadi. She’rdagi takrorlangan misralar Aprinchur tiginning maqsadini amalga oshiruvchi, ya’ni ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilyapti.

Aprinchur tiginning ikkinchi she’ri muhabbat mavzusida yozilgan. She’rning dastlabki uch misrasida o‘chib ketgan joylari bor. Oshiq yoriga dard-alamlarini aytar ekan, unga dunyoda tengsiz sevikli, deb murojaat qiladi. Lekin sevimli yorning uzoqdaligi oshiq iztiroblarini kuchaytiradi. Shunday bo‘lsa-da, oshiq umidsizlikka tushmaydi, yorining visoliga yetishish ishtiyoqi bilan yashaydi.

Darvoqe, nima uchun uchlik shakli ham, xuddi to‘rtliklar qatori qadimgi turk she’riyatida yetakchi? Bu - erkin she’rga xos xususiyat qadimgi turkiy she’riyatda boshlanganidan dalolatdir.

Moniy muhitining mahsuli bo‘lgan she’rlardan yana biri “O‘lim tasviri” deb nomlanadi. She’r to’rtta dono tangrini inkor etish qanday oqibatlarga olib kelishi haqida bo‘lib, pand-nasihat ruhiga ega. Unda aytilishicha, chinakam inson tangrilarning kalomiga itoat etmog‘i lozim. To‘rtta dono tangri, ya’ni yer, suv, quyosh, olov xudolariga itoat qilsalar, to‘rt og‘ir azobdan qutuladilar. To‘rtta dono tangrini inkor etish, tangrining kalomini qadrlamaslik, zulmat shaytonlariga topinish, juda ko‘p gunoh qilish - to‘rt og‘ir azob hisoblanadi.

She’rda o‘limning haq ekanligi e’tirof etiladi. Shu sababli gunohkorlarga bo‘ladigan narigi dunyo azoblarini ham unutmaslik lozim. Agar inson tangrilarning kalomiga itoat etmasa, uning joyi do’zaxdir, degan qat’iy hukm mazkur she’rning mohiyatini tashkil etadi. She’r quruq pand-nasihatdan iborat emas, balki do’zaxda insonning shaytonlardan ko‘radigan azoblari cheksizligidan afsus-nadomatlar ham

bor. Shuning uchun she’rda do‘zaxda yuz beradigan fojialarning manzarasi ham beriladi.

“O‘lim tasviri” she’ri 7 banddan tarkib topgan bo‘lib, oxirgi bandining so‘nggi misralari nuqsonli. Bu she’rda ham bo‘g‘inlar miqdori orasida tenglik mavjud emas. Uning 6 misrasi 11 bo‘g‘inli, 13 misrasi 10 bo‘g‘inli, 4 misrasi esa 9 bo‘g‘inli bo‘lsa, 7,8,13 bo‘g‘inlilar bir misradan iborat. Misralardagi bo‘g‘inlar sonining xilma-xilligi uni yuqoridagi she’rlarga yaqinlashtiradi. Tong tangrisiga bag‘ishlangan madhiya hamda Aprinchur tigin madhiyalarida asosan so‘z va misralar takrori ohangdoshlikni yuzaga keltirgan bo‘lsa, mazkur she’rda qofiyalarning o‘rni ham muhimdir.

O‘rni kelganda shuni ta’kidlash lozimki, moniylik she’rlaridagi qofiyalanuvchi so‘zlarning ko‘pchiligida raviylar o‘zaro to‘liq mos kelmaydi. Qofiyalanishdagi bunday erkin uslub moniylik she’rlarini xalq og‘zaki ijodiga yaqinlashtiradi. Chunki folkorda qofiya unsurlari qoidalariga qat’iy rioya qilish talab etilmaydi. Bu xususiyat, ya’ni raviylarning nomuvofiqligi moniylik she’rlari qofiya tizimi va xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi qofiyalarda o‘xshash tomonlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy moniylik she’rlari orasida hajm jihatidan eng kattasi bo‘lgan madhiya - Moniyni ulug‘lashga bag‘ishlangan. Uning 123 to‘rtlikdan iborat bo‘lgan 492 misrasi saqlanib qolgan. Mavjud misralarning ko‘p qismida o‘chib ketgan so‘zlar anchagina uchraydi. Biroq to‘liq yetib kelgan to‘rtliklarning o‘zi ham she’rning tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari to‘g‘risida ma’lum bir tasavvur uyg‘ota oladi.

Xulosa tariqasida yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, moniylik she’rlariga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) tovush, so‘z va misralar takrori yetakchi;
- 2) bo‘g‘inlar miqdori xilma-xil;
- 3) bir she’r tarkibida turli she’riy shakllar mavjud;
- 4) bir she’r doirasida har xil qofiya shakllari uchraydi.

Monylik she'rlarining shakliy-poetik xususiyatlari uzlucksiz ravishda ilk klassik davrda, xususan, "Devonu lug'otit turk"da ham davom etgan. Qadimgi turkiy she'riyat yuzasidan fikr bildirgan ba'zi Yevropa olimlarining qarashlari turli-tumandir. Jumladan, P.Peloning fikricha, qadimgi turkiy she'rlar (moniylik she'rlari nazarda tutiladi – M.M.) qofiyalangan emas, balki she'r misralari boshidagi alliteratsiyaga asoslangan. "Devon"dagi she'rlar esa fors she'riyatining ta'siridan guvohlik beradi<sup>6</sup>.

### **Nazorat savollari:**

- 2.1. Qadimgi turkiy moniylik she'rlarining yuzaga kelish omillari haqida nimalar deya olasiz?
- 2.2. Moniylik adabiyoti qanday janrlarni yuzaga keltirdi?
- 2.3. Bizgacha moniylik ta'sirida ijod qilgan shoirlarning asarlari yetib kelganmi?
- 2.4. Moniylik she'riyatiga xos xususiyatlarini sanang.

### **Amaliy mashg'ulot mavzusi: "Xuastuanift" asari**

**Darsning maqsadi:** Moniylik oqimining mahsuli bo'lgan "Xuastuanift" asarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. "Xuastuanift"ning tuzilishini o'rganadi.
2. "Xuastuanift" asarining mohiyatini tahlil qiladi.
3. "Xuastuanift"ning g'oyaviy xususiyatlariga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** "Xuastuanift" asari va u haqidagi ilmiy manbalar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Moniylik oqimining mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. "Xuastuanift"ning moniylik oqimi g'oyalari targ'ibotidagi rolini izohlang.
3. "Xuastuanift"ning tuzilishini o'rganing.
3. "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmunini tahlil qiling.
4. "Xuastuanift"ning moniylik adabiyotida tutgan o'rniga baho bering.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

---

<sup>6</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм XI века. -М.: Наука, 1971. -С. 7.

“Xuastuanift” asarining mohiyatini tahlil qilish.

1. “Xuastuanift”ning 1-5 bo‘limlarini tahlil qiling.
2. “Xuastuanift” asarining 6-10 bo‘limlariga baho bering.
3. “Xuastuanift”ning 11-15 bo‘limlari mohiyatini izohlang.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 64-81.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev). 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 31-41.
3. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 13-37.

#### **Qo‘srimcha adabiyot:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 95-130.

#### **Seminar mavzusi: Moniylik mifologiyasi**

**Darsning maqsadi:** Talabalarda moniylik oqimining o‘ziga xos mifologiyasi haqida tasavvur uyg‘otish.

#### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Moniylik mifologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.
2. Moniylik mifologiyasi va zardushtiylik munosabati masalalariga baho beradi.
3. Moniylik oqimiga aloqador mifologik obrazlarni tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** “Xuastuanift” asari hamda moniylik mifologiyasiga aloqador ilmiy-ma’rifiy manbalar.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Moniylik mifologiyasining paydo bo‘lishi omillari haqida ma’lumot bering.
2. Moniylik va zardushtiylik mifologiyasidagi o‘xhash xususiyatlarni aniqlang.
3. Xo‘rmuzd mifologik obraziga xos jihatlarga izoh bering.
4. Axriman obrazining moniylik mifologiyasidagi tasvirini o‘rganing.
5. Zervan obrazini tahlil qiling.

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

Monylik mifologiyasi mohiyatini o‘rganish.

1. Mifologiyaning moniylik oqimida tutgan o‘rniga baho bering.
2. Moniylik mifologiyasiga xos xususiyatlarni aniqlang.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 64-81.

1. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev). 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 31-41.

2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 13-37.

**Qo‘sishimcha adabiyot:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 95-130.

**QADIMGI TURKIY MONIYLIK SHE’RLARI BADIYATI**

**Asosiy savollar:**

1. Qadimgi turkiy adabiyot namunalarida tashbih, takrir, tashxis kabi badiiy tasvir vositalarining o‘rni.

2. Moniylik she’rlarida talmih, ruju, mubolag‘a va nido san’atining qo‘llanilishi.

**Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Poetika, she’r, badiiy tasvir vositasi, tashbih, takrir, talmih, ruju, mubolag‘a, nido

**Mavzuga oid muammolar:**

1. Nima uchun qadimgi turkiy adabiyot namunalaridagi mavjud badiiy tasvir vositalarining nomlari asosan arabcha? Bunga munosabatingiz qanday?

2. Badiiy tasvir vositalarining taraqqiyotida qadimgi turkiy adabiyotdagi qo‘llanilgan she’riy san’atlarning o‘rni va roli qanday? Bu haqda nimalar deya olasiz?

**1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Moniylik she’rlarida tashbih, takrorlar va tashxisning qo‘llanilishini o‘rganish hamda ularning she’riyatning ta’sirchanligini oshirishdagi vazifasiga e’tibor qaratish.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1.1. Moniylik she’rlarida tashbih san’atining qo‘llanilishi haqida ma’lumot beradi.

1.2. Moniylik she’rlarida qo‘llanilgan takrorlarni tahlil qiladi.

1.3. Tashxisning moniylik adabiyotida tutgan o‘rniga baho beradi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi badiiy tasvir vositalarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu masalaning hal etilishi, birinchidan, qadimgi turkiy adabiyot namunalari mohiyatini yana-da yaqqolroq ochilishini ta’minlasa, ikkinchidan, ularning o‘ziga xos tomonlarini yoritishga xizmat qiladi.

Bizgacha yetib kelgan manbalar turkiy adabiyotda she’rning qadimdan mavjud ekanligini tasdiqlaydi. She’r o‘ziga xos qonun-qoidalar asosida vujudga keladi. Uning yaratilishida badiiy tasvir vositalari ham muhim rol o‘ynaydi. Badiiy tasvir vositalarining paydo bo‘lishi bevosita she’r bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Demak, she’riyatning shakllanishi asta-sekin u haqidagi ilmiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Biroq islomdan avvalgi davrdagi adabiyotshunoslik haqida bizgacha deyarli ma’lumot yetib kelmagan. Shu sababli qadimgi turkiy moniylik she’rlaridagi badiiy tasvir vositalarini tadqiq etish uchun o‘rta asrlar adabiyotshunosligidagi atamalardan foydalaniladi. To‘g‘ri, qadimgi turkiylar davridagi adabiyotshunoslik fan sifatida rivoj topmagan bo‘lsa-da, lekin uning elementlari mavjud edi. Aks holda, she’r yuzaga kelmagan bo‘lardi. Bu jarayon boshqa xalqlarning ilk davrdagi adabiyotida kuzatiladi<sup>7</sup>. Qolaversa, bu tajriba umumturkologik tadqiqotlarda bor<sup>8</sup>. Shuningdek, I.V.Stebleva ham qadimgi turkiy

<sup>7</sup> Лихачев Д.С. Исследования по древнерусской литературе. -Л.: Наука, 1986. -С. 63.

<sup>8</sup> Қаранг: Раҳмонов Н. Култегин ёдномаси поэтикаси // Ўлмас обидалар. –Т.: Фан, 1989. –Б. 193-207; Абдураҳмонов F., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 114.

yodgorliklarning badiiy tasvir vositalari poetikasiga alohida to‘xtalganda keyingi davr adabiyotshunosligi qonuniyatlarini tatbiq qilib, shu asosda baholaydi<sup>9</sup>.

She’r san’atlarining mukammal tadqiq etilishi islom davri adabiyotshunosligi bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, qadimgi turkiy adabiyotdagi badiiy vositalarning nomlarinigina keyingi davr adabiyotshunosligi mahsuli deb qarash lozim. Badiiy tasvir vositalarining o‘zi esa qadimgi turkiy she’riyatning ichki qonuniyatlari asosida vujudga kelgan bo‘lib, ularning shakllanishi islomdan ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi turkiy adabiyotdagi badiiy vositalarni tekshirish ularning turkiy adabiyotdagi tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish imkonini beradi.

Biror predmet, narsa yoki hodisaning belgi-xususiyatini xuddi shunday belgi-xususiyatga ega bo‘lgan boshqa predmet, narsa yoki hodisa orqali ifodalash, solishtirish, o‘zaro qiyoslash va shu tariqa tasvirlanayotgan narsa, hodisa yoki voqeanning ayrim xususiyatlarini kitobxonga jonliroq, yorqinroq hamda ta’sirchan yetkazib berish tashbih san’atining mohiyatini tashkil qiladi. Tashbih o‘tmish adabiyotida qo‘llanilgan badiiy san’atlar ichida alohida o‘rinni egallaydi. Chunki “shoirning mahorati, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligi”<sup>10</sup> tashbih orqali namoyon bo‘ladi.

Islomgacha bo‘lgan qadimgi turkiy she’riyatda ham tashbih asosida yaratilgan misralar alohida o‘rin egallaydi. Moniylik adabiyotining mahsuli bo‘lgan “O‘lim tasviri” nomli she’r didaktik yo‘nalishga mansub. Uning “... asosiy mavzusi – to‘rtta dono tangrini inkor etish qanday oqibatlarga olib kelgani to‘g‘risida. She’rda aytishicha, chinakam inson tangrilarning kalomiga itoat etsin. To‘rtta dono tangriga itoat etsalar, to‘rt og‘ir azobdan qutuladilar”<sup>11</sup>. Aksincha, inson ularga itoat etmasa-chi? Bu holda uning oxirati - jahannam. She’rda do‘zax tasviri berilar ekan, shayton gunohkorlarga azob beruvchi sifatida ko‘rinadi va uning tashqi qiyofasi chiziladi:

<sup>9</sup> Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературе её трансформация в раннеклассический период. -М.: Наука, 1976. -С. 162.

<sup>10</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б. 65.

<sup>11</sup> Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. -Т.: Халқ мероси, 2002. –Б. 29.

Tetru sachlig‘ qurtg‘a yek kelir tiyur,  
To‘lilig‘ bulitteg to‘nqi qashlig‘ tiyur<sup>12</sup>.  
Ters, junli, qari shayton kelar, derlar,  
To‘la bulut kabi qora qoshli derlar.

Bu yerda muallif tashbih usulidan foydalanib, qari shaytonning qoshlarini bulutning yog‘moqchi bo‘lgan paytdagi holati - qop-qoraligiga o‘xshatayapti. Keyingi misralar esa uning boshqa a‘zolarini tasvirlash bilan davom ettiriladi:

Qanlig‘ buqachteg qaraqi tiyur,  
Qashg‘uqteg qara bo‘y emki tiyur. (ETŞ, 24-bet)  
Qonli tuvakday ko‘zлari derlar,  
Qoziq kabi katta ko‘kragi derlar.

Ko‘zларining qon to‘la tuvakka, ko‘kraklarining qoziqqa tashbih qilinishi misralarning ta’sirini kuchaytirib, odamda do‘zax azoblari haqida to‘liqroq tasavvur uyg‘otayapti.

So‘zni misra yoki baytlar tarkibida takror ishlatish ham badiiy san’at hisoblanib, ular, ya’ni takrorlar she’riyatda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri ekanligi bilan ajralib turadi. Takrorning bir necha turlari mavjud bo‘lib, shunday so‘z takroriga asoslanadigan lafziy san’atlardan biri takrirdir. Uning mohiyatiga ko‘ra, ifodalanayotgan ma’noni kuchaytirish, ma’lum fikrni ta’kidlash yoki yorqin ifodalash hamda ta’sir kuchini oshirish maqsadida bir xil so‘z, ibora yoki birikma bayt misralarida takror holda qo‘llanadi.

Monylik she’rlarida ham takrorlar asosiy belgi bo‘lib, ular orasida misralar takrori yetakchi mavqega egadir. Aprinchur tigin yaratgan madhiyaga e’tibor beraylik:

Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur,  
Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur.  
Rednide yig mening edgu tengrim alpim bekrekim,  
Rednide yig mening tengrim alpim bekrekim.

---

<sup>12</sup> Arat R.R. Eski türk şiiri. –Ankara: 1991. –S. 24. (Bundan keyingi misollar ham mazkur kitobdan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi).

(ET\$, 16-bet)

To‘rtlikning birinchi bayti bir misraning to‘liq takroridan qurilgan bo‘lsa, ikkinchi baytda ham shu holat qaytariladi. Faqat farqli jihat – baytning birinchi misrasidagi “edgu” so‘zagina ikkinchi misrada keltirilmagan, xolos. Keyingi bandning dastlabki baytida misra takrori asosiy rol o‘ynasa, oxirgi bayti misralari uch so‘zning qaytarilishidan iborat:

Bilegusuz yiti vajir tiyur,

Bilegusuz yiti vajir tiyur.

Vajirda o‘tvi biligligim tuzunum yaruqum,

Vajirda o‘tvi biligligim bilgem yangam. (ET\$, 16-bet)

Moniylik ta’sirida yaratilgan she’rlarda hatto bandlar takrori ham uchraydi. Quyidagi beshlik Tong tangrisiga bag‘ishlangan she’r tarkibiga kiradi:

Tang tengri

Yidlig‘, yiparlig‘

Yaruqlug‘, yashuqlug‘,

Tang tengri,

Tang tengri. (ET\$, 8-bet)

She’r yana shu misralar bilan yakunlanib, bandlar takrorini yuzaga keltirgan. Demak, qadimgi turkiy moniylik she’rlarida takrirning misralar va bandlar takrori ko‘rinishlaridan unumli foydalanilgan.

Qadimgi yozma yodgorliklarda shaxslantirish hodisasini ham kuzatish mumkin. Bu poetik usul tashxis deb atalib, she’riy san’at sifatidagi mohiyati tabiatdagi narsa va hodisalarini, umuman barcha jonsiz mavjudotlarni jonlantirishga asoslanadi:

..... aytur tiyur,

... kentu qilmish qilinchi ko‘zunur tiyur,

Yir sub quti irinur tiyur,

O’t sub quti ig‘layur tiyur,

Ig‘ach quti uliyur tiyur.

Ko‘ni buyruq ko‘zungu-che ko‘zunupen,

Tanmish uz-utug tutupan,  
 Tarazuk ichinte o‘lg‘urtur tiyur. (ET\$, 28-bet)  
 (Inson qilmishlari) aytilar, derlar,  
 O‘zi qilgan ishlar ko‘rilar, derlar,  
 Yer-suv quti qochadi, derlar,  
 O‘t-suv quti zorlanar, derlar,  
 O‘t-o‘lan quti ingranar, derlar,  
 Odil buyruq ko‘zgudagi aksday orqaga chiqib,  
 Inkorchи ruhni tutib olib,  
 Taroziga o‘tqazadi, derlar.

Mazkur parcha “Do‘zax tasviri” nomli she’rdan olingan bo‘lib, u gunohi bor odamlarning narigi dunyoda qanday jazolanishi haqidagi tasavvurlardan iborat. Shoir jahannam xususida fikr yuritar ekan, odamlarning qilgan gunohlaridan yer, suv, olov, o‘t-o‘lan barakasi ketadi tushunchalariga nisbatan “qochadi”, “zorlanar”, “ingranar” so‘zlarini ishlatadi va ularga kishilarga xos xususiyatlarni ko‘chiradi. Shuningdek, odil buyruq va inkorchи ruhlar tasvirida ham insoniy belgilarni kuzatiladi. Jumladan, odil buyruq orqaga chiqadi, inkorchи ruhni tutib oladi, taroziga o‘tqazadi va hokazo. Bular Moniy muhitida yozilgan she’rlarda tashxis vositasi o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi. Bu xususiyat “Tong tangrisi” madhiyasida ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. She’rda Tong tangrisi misolida butun bor tabiat jonlantiriladi. Bu “... mifologik fikrlashning eng qadimiy bosqichida xudo va tabiat uyg‘un holda, ya’ni xudo tabiatda mujassam etilgan holda tasavvur qilingan...”<sup>13</sup>ligining belgisidir:

Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi,
Tang tengri o‘zi kelti.	Tong tangrisi o‘zi keldi,
Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi,
Tang tengri o‘zi kelti.	Tong tangrisi o‘zi keldi.

(ET\$, 8-bet)

---

<sup>13</sup> Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. -Т.: Халқ мероси, 2002. –Б. 33.

Demak, mazkur she'r islomdan avvalgi she'riyatimizda jonlantirishning badiiyat qoidalariga mos ravishda qo'llanilganligiga yana bir dalil sifatida ham qimmatlidir.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Qadimgi turkiylar davrida ham adabiyotshunoslik fani rivoj topganmi?
- 1.2. Qadimgi turkiy moniylik she'rlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar nima sababli keyingi davrlar adabiyotshunosligi atamalari orqali nomlanadi?
- 1.3. Moniylik she'riyatida badiiy tasvir vositalari qanday o'rin tutadi?

**2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talmih, ruju, mubolag'a va nido kabi she'riy vositalarning moniylik adabiyotida tutgan o'rni haqida tasavvur uyg'otish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.1. Moniylik she'rlarida talmeh va ruju san'atlarining qo'llanilishi to'g'risida ma'lumot beradi.
- 1.2. Moniylik she'rlarida qo'llanilgan mubolag'a namunalarini tahlil qiladi.
- 1.3. Nido san'atining moniylik she'riyatida tutgan o'rniga baho beradi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Talmih ma'naviy san'atlardan biri hisoblanib, uning asosini biror tarixiy shaxs, qahramon, voqeа, rivoyat yoki afsona kabilarga ishora qilish tashkil etadi. «O'lim tasviri» nomli she'rning keltirilayotgan misralariga e'tibor qilaylik:

Tardichteg etuzin qodir tiyur,

Tavari turg'uru qalir tiyur. (ETŞ, 24-bet)

Tardichday vujudin tark etar derlar,

Mol-u mulk orqada qoladi, derlar.

Dastlabki qatordagi Tardich so'zi zamiriga misralar mazmunidan kimningdir nomi yashiringanligi sezilib turibdi. Kim bo'lishi mumkin, Tardich? Nima uchun u vujudini tark etmoqda? Nima sababli uning molu mulki orqada qolayapti? Bizningcha, Tardich mifologik timsol bo'lib, inson tanasini tark etgan mavjudotdir. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi noma'lum. Shubhasiz, bu nom ostidagi tushuncha tanadagi jon, ruhiy olamdagи ezgulik bo'lishi ham mumkin. Agar Tardichni

mifologik qahramon sifatida qabul qiladigan bo‘lsak, u holda talmihning dastlabki namunalari islomdan avvalgi qadimgi turkiy adabiyotda vujudga kelgan, deyish imkoniyati tug‘iladi. Chunki shoir uning taqdiriga ishora qilish orqali bizga noma’lum, lekin o‘z davrida hammaga ma’lum bo‘lgan voqeani eslatayapti. Demak, Tardich moniylik she’rlarida talmihni yuzaga keltirishda vosita bo‘lgan qahramondir.

Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur,  
Bizing tengrimiz edgusi redni tiyur.  
Rednide yig mening edgu tengrim alpim bekrekim,  
Rednide yig mening tengrim alpim bekrekim.

(ET\$, 16-bet)

Bizim tangrimizning xo‘blig‘i javhardir, derlar,  
Bizim tangrimizning xo‘blig‘i javhardir, derlar.  
Javhardan-da ustun mening a’lo tangrim, alpim, pahlavonim,  
Javhardan-da ustun mening a’lo tangrim, alpim, pahlavonim.

Mazkur misolda ruju’ san’ati mavjud. Ruju’ so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaytish demakdir. Bu san’atning mohiyatiga ko‘ra avval bir fikr aytildi, so‘ngra undan qaytib yoki voz kechib, boshqa fikr bildiriladi. Yuqoridagi misralar tangrini madh qilishga bag‘ishlangan. Aprinchur tigin birinchi baytda takror vositasi orqali tangriga xos bo‘lgan ezgulikni, yaxshilikni javharga qiyoslasa, keyingi baytda dastlabki fikrlaridan qaytib, undan ham kuchliroq fikr aytishga harakat qiladi, ya’ni uning sifatlari javhardan ham yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Shu tariqa, shoir moniylik she’rlarida ham ruju’ usulining qo‘llanilishiga erishadi.

Mubolag‘a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki ijodida ham keng foydalanilgan. O‘tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag‘a to‘g‘risida fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida “... mubolag‘a andin iboratturkim, so‘zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchluglugi yoki kuchsuzluguning ortiqlig‘in, ul ortiqliq odattin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf etuk ermas degan

xayolga bormayturgan darajada, da'vo qilur”<sup>14</sup> deb yozsa, Fitrat “Adabiyot qoidalari” risolasida “tuyg‘ularimizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo‘lg‘anidin bir oz ortirib ko‘rsatmakka mubolag‘a deymiz. Mubolag‘a chin (samimiy) bo‘lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo‘raki yasama bo‘lmasa, tuyg‘ulardog‘i kuchlilik - o‘tkirlikni onglatishga katta yordam qiladir”<sup>15</sup>, deb qayd etadi.

Darhaqiqat, mubolag‘aning mohiyatini biror narsa, hodisa, voqeа yoki insonga xos bo‘lgan belgi, xususiyatni orttirib, kuchaytirib tasvirlash va shu yo‘l bilan ifodani obrazli tarzda bo‘rttirish, uning ta’sirchanligini oshirish tashkil qiladi:

Burninta bo‘z bulit o‘nur tiyur,

Tamg‘aqinta qara tutun tashiqar tiyur.

(ET\$, 24-bet)

Burnidan bo‘z bulut chiqar derlar,

Bo‘g‘zidan qop-qora tutun ko‘tarilar derlar.

Mazkur tasvir – shayton qiyofasiga tegishli. Uni bunday tasvirlash insonlarni gunoh ishlardan qaytarishga undash, xolos. Chunki mubolag‘ali usul do‘zaxni tasavvur qilish va uning azoblarini yanada yaqqolroq his etishga yordam berayapti.

O‘tmishda yashab o‘tgan qaysi bir shoirning ijodiy merosini ko‘zdan kechirmang, ularda albatta nido san’ati qo‘llangan baytlarning uchrashi tabiiy, chunki nido ifodalanayotgan fikrga kitobxonning diqqatini tortadi, unga e’tiborni kuchaytiradi va shu orqali ifoda, ya’ni nutqning go‘zalligi, jozibaliliginini ta’minlaydi, uning ta’sirchanligini oshiradiki, bu vazifalar uning she’riyatda o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi.

Agar shoir tasvir jarayonida fikru tuyg‘ularini biror narsa, voqeа, hodisa yoki insonga murojaat tarzida ifoda etsa, amalda nido san’atidan foydalangan bo‘ladi. Moniylik she’rlaridan keltirilayotgan quyidagi to‘rtlikni mazkur san’atning namunasi deyish mumkin. Chunki unda kun va oy tangrilariga iltijo etish hamda

---

<sup>14</sup> Ҳусайний А. Бадойиъ-с-санойиъ. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. –Б.152.

<sup>15</sup> Фитрат А. Адабиёт қоидалари. -Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 71.

ulardan najot kutish to‘g‘risidagi fikrlar ifodalanib, tangrilarga qilingan murojaat nido ko‘rsatkichi hisoblanadi:

Ko‘rugme kun tengri,	Ko‘ringan kun tangri,
Siz bizni kuzeding.	Siz bizni qo‘riqlang.
Ko‘runigme ay tengri,	Ko‘ringan oy tangri,
Siz bizni qurtg‘aring.	Siz bizni qutqaring.

(ET\$, 8-bet)

Qadimgi turkiy moniylik she’rlari mavzu jihatdan diniy mazmunda bo‘lganligi sababli undagi nidolar asosan Tangri yoki Moniya murojaat qilish orqali yaratilgan:

Qut qolur biz tengrime
Etuzumuzni kuzeding
Uzutumuzni bo‘shing.
Qiv qolur biz yaruq tengrilerke,
Adasizin turalim,
O‘grunchligin erelim. (ET\$, 12-bet)

Qut baxsh eting, ey tangrim!
Vujudimizni asrang!
Ruhimizni ozod qiling.
Qut iltijo etarmiz nurli tangrilardan,
Qo‘rquvsiz turaylik,
Sevinch-la yashaylik.

Ko‘rinadiki, misralarda Tangriga bo‘lgan murojaat aks etgan bo‘lib, go‘yo Tangri kishilar uchun homiy yoki himoyachi. Chunki lirik qahramon nazarida qutbaraka, shodlik va quvonch bilan yashash Tangriga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tasvir vositalarining shakllanishi badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Bu - poetik san’atlarning genezisi juda qadimda ekanligini bildiradi. Moniylik she’rlari asosan diniy mazmunda bo‘lganligi sababli ularda poetik vositalar Moniy g‘oyalarining ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Umuman, qadimgi turkiy moniylik she’rlarida

ko‘plab badiiy san’atlardan ustalik bilan foydalanilib, ular orqali she’riy misralar mazmunini aniqroq, jonliroq, chuqurroq ifodalashga hamda badiiy qimmatini oshirishga erishiladi.

### **Nazorat savollari:**

2.1. She’r san’atlarining aksariyati qadimgi turkiy adabiyotda shakllangan deyish to‘g‘rimi?

2.2. She’r san’atlarining janrlar takomiliga qanday ta’siri bor?

2.3. Moniylik she’riyatida qaysi badiiy tasvir vositalari imkoniyatidan kengroq foydalanilgan?

### **Amaliy mashg‘ulot mavzusi: Moniylik she’riyati**

**Darsning maqsadi:** Moniylik adabiyotining o‘ziga xos she’riyati to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Moniylik she’rlarini g‘oyaviy jihatdan tahlil qiladi.

2. Moniylik she’rlarida qo‘llanilgan poetik obrazlarga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** Moniylik she’rlaridan namunalar hamda ilmiy-ma’rifiy manbalar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Bizgacha yetib kelgan moniylik she’rlari haqida ma’lumot bering.

2. Bu she’riyatga moniylik dinining ko‘rsatgan ta’sirini izohlang.

3. “O‘lim tasviri” nomli she’rni tahlil qiling.

4. “Do‘zax tasviri” nomli she’rga baho bering.

5. Aprinchur tiginning she’rlari moniylik adabiyotida qanday o‘ringa ega ekanligini aniqlang.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

Moniylik she’rlarini tahlil qilish.

1. Moniylik she’rlariga xos xususiyatlarni aniqlang.

2. Moniylik she’rlariga baho bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 64-81.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 41-44.
3. Arat R.R. Eski turk siiri. Ankara: 1991

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2003. B. 28-37.
2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodni, 2006. B. 44-54.

**Amaliy mashg'ulot mavzusi: Moniylik she'rлari badiiyati**

**Darsning maqsadi:** Moniylik she'rлarining yuzaga kelishida badiiy tasvir vositalarining o'rni va roli haqida tasavvur uyg'otish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Moniylik she'rлarida ma'naviy san'atlardan foydalanish mahoratiga baho beradi.

2. Moniylik she'rлarida qo'llanilgan lafziy san'atlarni tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Moniylik she'riyati namunalari va she'r san'atlari haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Moniylik she'rлarida qo'llanilgan she'r san'atlari haqida ma'lumot beradi.
2. Moniylik she'rлaridagi mavjud badiiy tasvir vositalarini tasnif qiladi.
3. Moniylik she'rлarida qaysi badiiy san'atlardan kengroq foydalanilganligini aniqlaydi.
4. Moniylik she'rлarining yaratilishida badiiy tasvir vositalarining tutgan o'rniga baho beradi.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

Monylik she'rлari badiiyatiga baho berish.

1. Moniylik she'rlaridagi badiiy tasvir vositalarining islom davri adabiyotida qo'llanilishini tahlil qiling.

2. Badiiy tafakkur taraqqiyoti she'r san'atlarining takomilida qanday rol o'ynaganiga baho bering.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 41-44.

2. Arat R.R. Eski türk şiiri. –Ankara: 1991

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2003. B. 28-37.

2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlod, 2006. B. 44-54.

## **FOL KITOBLARI**

#### **Asosiy savollar:**

1. Irq bitigi - qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida

2. Fol kitobi va turkiy mifologiya

#### **Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Irq, Irq bitigi, fol, Fol kitobi, folbin, ta'bir, Ta'birnomma, ta'birchi

#### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Ma'lumki, bizgacha ikkita Irq bitigining namunasi yetib kelgan. Ular o'rtaida o'zaro uyg'un va farq qiluvchi holatlar mavjudmi?

2. Irq bitigi qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida baholanadi. Ularda yozma adabiyotga xos qaysi jihatlar aks etgan?

**1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:** Irq bitigining paydo bo'lishini tahlil qilish orqali uning qadimgi turkiy adabiyot tarqqiyotida tutgan o'rniga baho berish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1.1. Irq bitigining shakllanishi haqida ma'lumot beradi.

1.2. Irq bitigini didaktik asar sifatida tahlil qiladi.

1.3. Irq bitigini turkiy yozma adabiyot namunasi sifatida baholaydi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Qadimgi turkiylar davridan bizgacha ikkita Irq bitigi yetib kelgan. Har ikkalasining yaratilgan vaqtin deyarli bir - VIII asrning oxiri X asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ulardan biri o‘rxun yozuvida bitilgan bo‘lsa, ikkinchi moniy yozuvida yaratilgan.

Runiy yozuvida bitilgan Irq bitigining qo‘lyozmasini XIX asrning oxirida ingliz olimi Arnold Steyn Dunxuan shahridan topgan. Irq bitigi qadimgi turkiylar mifologiyasi va urf-odatlari zaminida shakllangan adabiyot namunasi edi. Mifologiya va turkiy urf-odatlar, turkiylarning dunyoqarashi tahlil qilinsa Irq bitigining mohiyati to‘la ochiladi. Irq bitigi qog‘ozga yozilgan bo‘lib, sahifalari 13,6 x 8 sm hajmidagi kitob bo‘lib, 100 betdan ortiq. Kitobning nomi asar oxirida Irq bitigi deb nomlangan. Irq so‘zi hozirgi fol so‘ziga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun uni Fol kitobi ham deb atash mumkin. Unda diniy motiv va obrazlar umuman yo‘q. Kitobning maqsadi - xalqni ezgulikka chorlash.

Irq bitigi ma’lum bir axloqiy printsiplarni targ‘ib etgan, shuning uchun uni pand-nasihat tipidagi asar deb qarash mumkin. Unda folklor motivlarini, kosmogonik va kalendar mifni, totemistik mifni, lirik kayfiyatni, tabiatning jonli tasvirini kuzatamiz. Irq bitigidagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi g‘oyaning farqlanishi, g‘oyalarni keng xalq ommasiga etkazish uning negizini tashkil qiladi. Irq bitigi tush ko‘rish va uni ta’birlash shaklida yozilgan. Undagi mifologik mazmun ramziy obrazlar asosiga qurilgan bo‘lib, milliylik geografik muhit doirasida chegaralangan. Ayniqsa, oynaga bag‘ishlangan epizodda buni yaqqol ko‘rish mumkin: “Ayol ko‘zgusini ko‘lga tushurib yubordi, ertalab chalinadi, kechqurun chalinadi, der, shunday bilinglar: munglidir bu, juda yomondir bu”. Ko‘zgu - bu ayol kishining taqdiri ramzi. Agar ayol kishining oynasi yo‘qolsa yoki sinsa unga baxtsizlik keladi.

Irq bitigida davlat yoki ma’lum guruhlarning manfaatlari bosh o‘rin tutmaydi. Masalan, uning birinchi sahifasi shunday: “Men Tinsiman, erta-yu kech

oltin tog‘ning ustida o‘tirib quvonurman, shunday bilinglar: yaxshidir bu”. Buning ostida hukmdorni ideallashtirish bilan birga, xalq osoyishta hayot kechirsa, podshoh ham shunga xursand, degan mazmun yotadi. Qadimgi turkiylarning tasavvuricha, odamlar tushida Tinsi (Chin hukmdori)ni ko‘rsa boy bo‘ladi. Bunday g‘oyalar o‘sha davrdagi xalqparvarlikning bir ko‘rinishidir.

Irq bitigida folklor motivlarini, kosmogonik va kalendar mifni, totemistik mifni, lirik kayfiyatni, tabiatning jonli tasvirini kuzatamiz. Ammo bularning ostida yotuvchi g‘oya, obrazli tafakkurning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Inson tashqi olamni aqli yetgancha o‘zlashtirib ola boshlagandan beri badiiy obrazli fikrlash boshlangan. VII-VIII asrga kelib, ayniqsa Irq bitigida u o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Irq bitigidagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi g‘oyaning farqlanishi, ya’ni nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini ajrata bilish, g‘oyalarni keng xalq ommasiga yetkazish uning negizini tashkil qiladi. Asarda turkiy xalqlar hayotining barcha tomonlari - madaniy-maishiy turmushi, odamlarning o‘zaro munosabatlari va axloqiy printsiplari o‘rin olgan.

Irq bitigi tush ko‘rish va uni ta’birlash shaklida yozilgan. Buyumlar haqidagi tasavvurlarni talqin qilish va hodisalarni baholashda “yaxshi” yoki “yomon” deb chiqariladigan hukm voqealarning mantig‘idan kelib chiqadi. Irk bitigidagi parchalar ostida yashirin mazmun bor. Bunday parchalarda muallifning xayoloti va ijodiy erkinligi yaqqol namoyon bo‘ladi: “Zotdor ot Sharq tomondan charchab, ozib-to‘zib qaytdi, tangri sharofati bilan tog‘ ustida jilg‘a suvini ko‘rib, o‘rmon ichida ko‘m-ko‘k o‘t ko‘rib, yurib borib, suv ichib, o‘t yeb, o‘limdan xalos bo‘ldi der, shunday bilinglar: yaxshidir bu”.

Ot turkiylarda muqaddas hayvon sanalgani ma’lum. U odamning doimiy yo‘ldoshi sifatida talqin qilingan. Buni qadimgi turkiylardagi dafn odatlari ham tasdiqlaydi. Zotan, ot nima uchun boshqa tomondan emas-u aynan Sharq tomondan keladi? Bunga sabab turkiylarning vatani Sharqda ekanlidir, ayni paytda Sharq kun chiqish degan ma’noda hamdir. O‘z-o‘zidan ot bu o‘rinda quyosh kulti bilan bog’langan.

Iraq bitigida ilon muqaddaslashtirilgan, tushda ilon ko'rsa, odamga boylik keladi, deb tasavvur qilingan. Ilonga bag'ishlangan parcha birmuncha jumboqli. Bu parchani izohlashda turkiylarning sof milliy tasavvurlariga tayanish lozim: "Oltin boshli ilonman. Oltin qornimni qilich bilan kesganda, menga yo'l indandir. Boshimga yo'l uydandir, der, shunday bilinglar: yomondir bu". Mazkur parchanining ostida shunday mazmun yotadi: agar uyda ilon paydo bo'lsa, uni uch kungacha o'ldirish kerak emas, to'rtinchik kuni o'ldirish kerak. Agar ilon uch kun ichida uydan o'z-o'zidan ketsa, uy egasiga daromad, boylik keladi.

Demak yuqoridagi epizodda ilon uch kun ichida o'ldirilgani uchun yomonlik belgisi deb baholanmoqda (o'zbeklarda ham hozirga qadar "agar odam ilonni o'ldirsa, ilonning avlodlari odamdan o'ch oladi" degan aqida saqlanib qolgan). Bu aqida esa ilon uch kun ichida o'ldirilgani haqidagi rivoyatning shakl tomondan o'zgargan ko'rinishidir. Lekin mohiyat o'zgarmagan.

Iraq bitigi qadimgi turkiy adabiyotda alohida bir bosqichdir, bu asarda yuksak badiiyat, chuqur falsafiy g'oya bor. Uning mavjudligi qadimgi turkiylar davrida o'ziga xos katta adabiy muhit bo'lganligidan dalolat beradi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Iraq bitigining mohiyati haqida so'zlang.
- 1.2. Nima uchun Iraq bitigini didaktik asar sifatida baholaymiz?
- 1.3. Shomonlik oqimining Iraq bitigiga qanday ta'siri bor?
- 1.4. Iraq bitigida mifologik obrazlarning uchrashi sabablarini izohlang.

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Moniy yozuvida yaratilgan Fol kitobining mohiyati haqida tasavvur uyg'otish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 2.1. Fol kitobining mohiyati haqida gapiradi.
- 2.2. O'rxun yozuvidagi Iraq bitigi bilan moniy yozuvidagi Fol kitobining farqli va o'xshash jihatlarini qiyoslaydi.
- 2.3. Fol kitobidagi ta'birlarni tahlil qiladi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Fol kitoblari aslida shomonlikning mahsulidir. Moniy yozuvidagi Fol kitobi ham inson faoliyati bilan bog‘liq tushda zohir bo‘lgan hodisalarni ta’birlaydi, hayot, kundalik turmush bilan bog‘liq voqealarni tahlil qiladi.

Tushda zohir bo‘lgan hodisalarni ta’birlash Fol kitobining mohiyatini to‘liq ochib bera oladi. Fol kitobida ikki g‘oya bosh o‘rin tutadi:

- 1.Vujudni saqlamoq va ruhni ozod etmoq.
- 2.Tahlikadan uzoq turmoq va sevinch ichida yashamoq.

Bu Fol kitobida 13 ta hodisa va buyum ta’bir qilingan. Undagi tush ta’biri ostida ham mifologik motiv yotadi. Mifologiyaning Fol kitobidagi vazifasi udumlarni va hayotiy tushuncha tassavurlarini yuzaga chiqarishdan iboratdir. Tush ta’biri va udumlar Fol kitobida o‘zaro zich bog‘liqdir. Undagi har bir buyum yoki voqeal-hodisa ostida shaxsiyat yotadi. Zohiriy va botiniy mavjudlik hamda uning ostidagi shaxsiyat ramziylikdan dalolat beradi.

Fol kitobidagi ta’birni semantik xususiyatiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘lib talqin qilish mumkin:

1. Inson faoliyati va ruhiy holatiga aloqador ta’bir. Unga uchrashmoq, jang qilmoq, kamaymoq, yuz o‘girmoq, sevinmoq, qarshi kelmoq, huzur-halovat topmoq, bola tarbiyalamoq, tarbiya qilmoq tush ta’birlari kiradi.

2. Biror jism, joy, tabiiy hodisalarning tushdagi ta’biri. Unga quyosh, tog‘, chuqur quduq, quyosh nuri, insonlarning uchrashuvi ta’biri kiradi.

Fol kitobining birinchi qismi quyosh ta’biri bilan boshlanadi. Odam tushida quyoshni ko‘rsa, er yuzida shodu xurramlik hukm suradi, tush ko‘rgan odam ulug‘ mansablarga ko‘tariladi. Ko‘rinib turibdiki, quyosh ezgulik ramzi sifatida talqin qilingan.

To‘qnashuv hodisasi va uning ta’biri yuqoridagining aksidir. Agar to‘qnashuv tushga kirsa bunday paytda

“Qiyin, qo‘pol so‘z huzuringa keladi oldingda  
Shamol ustiga shamol qutirib esadi uyingda”.

Bu parcha odamlarning hayotda boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan voqeaga ishoradir. Odam tushda noma’qul narsalarni ko‘rsa, ko‘ngli vayron bo‘lishi turgan

gap. “Qiyin va qo‘pol so‘zlar” - bir–biri bilan dushmanlashishi mumkin bo‘lgan odamlarga ishoradir. “Shamolning quturib esishi” - yuz berishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklardan xabardir.

Muallif ta’birni bayon qilish jarayonida so‘z orqali inson ruhiy holatiga ta’sir o‘tkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Ta’birning davomida esa insondagi ruhiy og‘riqlar o‘rnini jismoniy og‘riq egallaydi. “Xastalik, og‘riqlar ko‘rarsan” deydi muallif va uning boshiga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa kulfatlarni ham odam ko‘z o‘ngida gavdalantiradi:

Seni yaralamoq uchun g‘amga g‘arq qiladi,  
Azob bermoq uchun atrofingni xastalik o‘raydi.

Shubhasiz, tushda g‘animga yoki boshqa ko‘ngilsiz hodisaga duch kelgan odam g‘amgin bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, ta’birchi odamlar ishonishi mumkin bo‘lgan g‘oyani ilgari suradi, shu tariqa u asosiy maqsadiga – moniylik oqimidagi yovuz kuch iblisning qilmishlariga ishora qiladi. To‘qnashuv ta’biri okkultizmning mahsulidir. Okkultizmga ko‘ra, g‘ayritabiiy kuch va g‘ayritabiiy voqeа-hodisalar tush ta’biriga mos keladi. Ruhiy va moddiy elementlarning o‘zaro mos kelishi to‘qnashuv ta’biridagi singari harakat bilan bog‘liq ta’bir uchun xarakterlidir. Ruhiy va moddiy olamni bir-biriga uyg‘unlashtirish, moddiy olamdagи real voqelikni gavdalantirish ushbu ta’birning muhim jihatlaridandir. Ta’birning davomida shu hodisa yanada yaqqolroq kuzatiladi:

Tanangga xastalik kiradi,  
Azob bor tanangda, qayg‘u keltirar,  
Vujudingga bir otash tushadi,  
Joningni sug‘urib oladigan qayg‘u-alam bor.

Tanada xastalik va azob paydo bo‘lishiga sabab – ruhiy va moddiy unsurlarning to‘qnashuvidir. Jon tanadan ajralmas ekan, qiyomatgacha poklanish bo‘lmaydi. Ta’birning xulosasida shunday yakun yasaladi:

Bunday tahlikali ahvoldan xalos bo‘lajak,  
Yo‘l, imkon senga ko‘rinmaydi.  
Huzur-halovat topolmaysan.

Shu lahzadan boshlab ta’birchi ruh hokimligiga intiladi, ruhni bosh mavzuga aylantiradi. Ruh ham moddiyat singari harakatga keladi, inson ruhini harakatga keltiruvchi kuch – fazoviy jismlar paydo bo‘ladi. Har qanday jism bir-biriga bog‘liq bo‘lib, bir-birini tebrantirganiday, ruh va fazoviy jismlar ham aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Fol kitobining yuzaga kelishida faqat ta’birchining shaxsiy qarashlarigina ahamiyatli bo‘lib qolmay, qadimgi turkiy muhitdagi udumlar, urf-odatlar ham muhim rol o‘ynagan. Udum va urf-odatlar esa o‘z navbatida mifologik mazmunga ega.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Ta’bir va ta’birlash tushunchalariga qanday izoh berasiz?
- 1.2. Fol kitobidagi etakchi g‘oyalar haqida gapiring.
- 1.3. Fol kitobidagi ta’birni semantik jihatdan necha guruhgaga ajratish mumkin?
- 1.4. Fol kitobining yuzaga kelishida moniylik oqimining roli haqida nimalar deyish mumkin?

### **Amaliy mashg‘ulot mavzusi: Fol kitobi**

**Darsning maqsadi:** Fol kitobini qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida baholash.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1 Fol kitobini qadimgi turkiy shomonlik adabiyotining namunasi sifatida tahlil qiladi.
2. Fol kitobini qadimgi turkiy moniylik adabiyotining bir qatlami tariqasida baholaydi.
3. Turkiy yozma adabiyot taraqqiyotida Fol kitobining tutgan o‘rniga tavsif beradi.

**Kerakli jihozlar:** Fol kitobi haqidagi ilmiy-ma’rifiy manbalar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Turkiy adabiyotdagi Fol kitobi haqida ma’lumot bering.
- 2 Fol kitobini badiiy adabiyot namunasi sifatida tahlil qiling.

3. Fol kitobidagi badiiy adabiyotga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. Fol kitobining shakllanishida diniy oqimlar qanday rol o‘ynaganligiga e’tibor qarating.
5. Fol kitobining yaratilishidan asosiy maqsad nima ekanligiga izoh bering.

**Mustaqil ish topshriqlari:**

Fol kitobi mohiyatini tahlil qilish.

1. Fol kitobining mohiyatini tahlil qiling.
2. Fol kitobi mohiyatiga baho bering.
3. Fol kitobining bugungi kundagi ahamiyatini aniqlang.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1987. B. 47-60.
2. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi ,1993. B. 105-118.
3. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 108-116.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari.1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 67-82.
2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 37-44.

**Seminar mavzusi: Irq bitigi**

**Darsning maqsadi:** Irq bitigini qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida baholash.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Irq bitigini qadimgi turkiy shomonlik adabiyotining namunasi sifatida tahlil qiladi.
- 2 Irq bitigini qadimgi turkiy moniylik adabiyotining bir qatlami tariqasida baholaydi.
3. Turkiy yozma adabiyot taraqqiyotida Irq bitigining tutgan o‘rniga tavsif beradi.

**Kerakli jihozlar:** Irq bitigi haqidagi ilmiy-ma’rifiy manbalar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Turkiy adabiyotdagi Irq bitigi haqida ma'lumot bering.
2. Irq bitigini badiiy adabiyot namunasi sifatida tahlil qiling.
3. Irq bitigidagi badiiy adabiyotga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. Irq bitigining shakllanishida diniy oqimlar qanday rol o'ynaganligiga e'tibor qarating.
5. Irq bitigining yaratilishidan asosiy maqsad nima ekanligiga izoh bering.

### **Mustaqil ish topshriqlari:**

Irq bitigi mohiyatini tahlil qilish.

1. Irq bitigining mohiyatini tahlil qiling.
2. Irq bitigi mohiyatiga baho bering.
3. Irq bitigining bugungi kundagi ahamiyatini aniqlang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987. B. 47-60.
2. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi ,1993. B. 105-118.
3. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 108-116.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari.1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 67-82.
2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 37-44.

## **SHOMONLIK OQIMIDAGI QADIMGI TURKIY ADABIYOT**

### **Asosiy savollar:**

1. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'r ganilishi
2. O'rxun-Enasoy yodgorliklari - qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida

### **Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

O‘rxun yodgorliklari, Enasoy yodgorliklari, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Kultigin, Moyunchur

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Ma’lumki, bunday yodgorliklar nafaqat O‘rxun va Enasoy daryolari bo‘ylaridan, balki sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Sibirning boshqa hududlaridan ham topilgan bo‘lsa-da, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari deb ataladi. Munosabatingiz.

2. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari topilganidan so‘ng ularni o‘qish uchun qariyb 150-yilcha vaqt kerak bo‘ldi. Buning sababi nimalarda deb o‘ylaysiz?

**1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining kashf qilinishi va o‘rganilishi hamda ilmiy jihatdan tadqiq etilishi xususida ma’lumot berish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. O‘rxun-Enasoy obidalarining topilishi haqida so‘zlaydi.
- 1.2. Bu yodgorliklarning chet el olimlari tomonidan o‘rganilishiga baho beradi.
- 1.3. O‘zbekistonda O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining tadqiq etilishini tahlil qiladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqida dastlabki ma’lumotni beradi. Shved zobiti Iogann Messershmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar.

Yodgorliklar topilganidan keyin ularni o‘qish va o‘rganish bir yarim asr mobaynida hech kimning qo‘lidan kelmadidi. 1893-yildagina daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V.Radlovlar yodgorliklardagi barcha harflarni o‘qidilar. O‘rxun-Enasoy obidalari “tosh bitiklari” deb ham yuritiladi. Buning sababi ko‘pgina yodgorliklarning qabr toshlariga o‘yib yozilganidadir. Bu yodgorliklar tarixiy voqealarni badiiy tarzda hikoya qiladi.

To‘nyuquq bitiktoshi ikkita ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 smdan iborat. Bu yodgorlikni Yelizaveta Klements 1897-yili Shimoliy Mo‘g‘ilistonda eri Dmitriy Klements bilan birgalikda izlab topgan.

Kul tigin bitigtoshi marmardan ishlangan, balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm bo‘lib, yuqoriga tomon torayib borgan. Yodgorlikni rus ziyolisi N.M.Yadrintsev 1889-yili Mo‘g‘ilistonning O‘rxun daryosi qirg‘og‘idan topgan. Yozuvlar o‘ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab bitilgan.

“Bilga xoqon” bitigini ham N.Yadrintsev topgan. U Kul tigin bitigtoshidan 1 km janubi-g‘arbda o‘rnatilgan. Uning bo‘yi 3 metr 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm, bitiktosh ag‘darilib, 3 ga bo‘lingan va ayrim satrlari nurab, yozuvlari ham zarar ko‘rgan. U 80 sartdan iborat. Bilga xoqon bitiktoshida Kul tigin bitiktoshidagi 41 satr takrorlangan.

Yodgorliklarni butun dunyo turkiyshunoslari ilmiy jihatdan o‘rganmoqda. V.Tomson va Radlovlardan keyin S.E.Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H.O‘rxun, T.Tekin, N.Osim, G.Aydarov, o‘zbek olimlaridan A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, N.Rahmonovlar o‘rganishgan.

Yodgorliklar hozirgi o‘zbek tiliga bir necha marotaba o‘girilgan. A.Qayumov “Qadimiyat obidalari” kitobida, G‘.Abdurahmon va A.Rustamovlar “Qadimgi turkiy til” kitoblarida o‘sha yodgorliklardan namunalar keltirishgan.

Runiy yozuvidagi yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas, ularning qog‘ozga, turli buyumlarga yozilgan namunalari ham bor. Masalan, Irq bitigi qog‘ozda yozilgan, shuningdek, kumush ko‘zachalarga yozilgan runiy yozuvlar Sibir o‘lkasidan topilgan. Yog‘ochga yozilgan rum bitiklari namunalari Ermitajda ham saqlanadi.

“Turk” degan nom Turk xoqonligi davridan ilgari ham turkiy tilda so‘zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o‘xhash yoki yaqin turkiy hamda turkiylashgan qavmlarning siyosiy birlashmasini bildirardi. Turk xoqonligi davrida bu jarayon o‘z rasmiy maqomiga ega bo‘ldi. Shuningdek, qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan ko‘k turklar deb yuritildi. Ko‘k turk –

ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar o‘zlarini osmon bolalari deb yuritganlari sababli ko‘k turk degan nom ularning rasmiy nomiga aylanib qoldi.

O‘zbekiston hududidan hozirgacha 20 dan ortiq turkiy yozuvdagi yodgorliklar topilgan. Yodgorliklarning aksariyati VI-VIII asrlar oralig‘ida yaratilgan. Lekin ba’zi yozuvsalar miloddan oldingi va milodning boshlariga aloqador. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi turkiy yozuvlarga boy o‘lka ekanini XX asrning 50-60-yillarda ilk bor topilgan turkiy yozuvsalar tasdiqlaydi. Turkiy yozuvsalar o‘sha davrlardayoq xaritalashtirila boshlagan. Qolaversa, Surxondaryo, Buxoro, Isfaradan topilgan turkiy yozuvdagi yodgorliklar O‘zbekistonning qadimgi davrlardan boshlab ma’naviy boyliklarga ega bo‘lgan zamin ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Faqt shugina emas, bu yozuv yodgorliklari turkiy qavmlar ma’naviy madaniyatida yangi sahifalar ochdi. O‘sha paytda olimlarning diqqatini ko‘proq Isfaradan topilgan yozuvsalar jalb qildi. Buning boisi shu ediki, Isfara yozuvsulari O‘rta Osiyoning, qolaversa, Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridagi turkiy yozuvlarga qaraganda qadimiydir, degan fikr sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Qizilqum yaqinidagi Quljuqtovdan, Boysundan topilgan yozuvsalar O‘zbekistonning turkiy yozuvlarning ilk maskani ekanini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Albatta, O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududidan topilgan turkiy yozuvlarni har tomonlama o‘rganish ishlari hali oldinda. Chunki yozuv etnik jarayonni aniqlashda muhim omil. O‘zbek xalqining etnik tarixini yaratishda hozirgacha qo‘lga kiritilgan yozuvsalar muhim dalil bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. O‘rxun-Enasoy obidalari nima uchun tosh bitiklar deb ham ataladi?
- 1.2. O‘rxun-Enasoy obidalari qachon topilgan?
- 1.3. Bu obidalarni birinchi marta qaysi olimlar o‘qib o‘rganishgan?
- 1.4. O‘rxun-Enasoy obidalarini o‘rganish bilan shug‘ullangan olimlarni bilasizmi?

**2-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** O‘rxun-Enasoy obidalari mohiyatini o‘rganish orqali talabalarda Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. O'rxun obidalarini g'oyaviy jihatdan tahlil qiladi.
- 1.2. O'rxun yodgorliklaridagi mavjud turkiy adabiyotga xos xususiyatlarni baholaydi.
- 1.3. Enasoy yodgorliklari mohiyatini izohlaydi.

## **2-asosiy savolning bayoni:**

O'rxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning namunasi hisoblanadi. Ular eposlar zaminida o'sib chiqqan adabiyot ekanligi bilan diqqatga sazovor. Yodnomalarning o'ziga xos bayon qilish texnikasi ham ayni turkiy eposlar xususiyatini gavdalantiradi. Bayon qilishdagi 3 ta qism – boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma yodnomalardagi hikoyaning izchilligini ta'minlaydi. Bu usul turkiy yozma adabiyotning eng qadimiy ko'rinishiga xosdir: "Yuqorida ko'k osmon, ostda qo'ng'ir yer yaratilganida, ikkovining o'rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan Bo'min xoqon, Istami xoqon o'tirgan. O'tirib, turk xalqining davlatini qonun-qoidalariini ushlab turgan, rioya qilib turgan" ("Kultegin" yodnomasidan). Shu parchaning o'zida boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma ham bor. Yer-u osmonning hamda insoniyatning yaratilishi - boshlanma, Bo'min va Istami xoqonlarning faoliyati - mazmun taraqqiyoti, qonun-qoidalarga rioya qilishlari esa tugallanmadir.

Yodgorliklarning tahlili qanday tarzda amalga oshadi? So'zni "To'nyuquq" bitigidan boshlaylik. To'nyuquq - shaxs nomi, u ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan. Asar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi: "Men – dono To'nyuquq erurman. Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg'ach davlatiga bo'ysinar edi..."

Asarda To'nyuquq bahodir va jasoratli shaxsgina emas, ayni paytda o'z atrofdagilarning mustahkam jipsligini ta'minlaydigan boshliq sifatida ham namoyon bo'ladi. U odamlarning ko'nglidan kechayotgan o'ylarni chuqur his qiladi. Shu bilan birga, ularning qalblariga ta'sir etish yo'llarini ham yaxshi biladi. Shunga ko'ra, u Vatan va yurt taqdirini, xalqning kelajagini o'z qardoshlariga buyuk xavotir bilan yetkazganida oz sonli qo'shini harakatga keladi. Natijada ko'p sonli dushman tor-mor bo'ladi.

To‘nyuquq buyuk vatanparvar shaxs obrazidir. Uning o‘z vatani, xoqoni, qo‘smini, xalqi bilan faxrlanishi, ularning borligidan o‘zini baxtiyor sezishi yodgorlik matniga puxta singdirilgan.

To‘nyuquq obidasi vatan haqidagi madhiyadir. U voqeiy yoki badiiy asar bo‘lishiga qaramay, unda hayot haqiqati, tarixiy haqiqat o‘z aksini topgan.

Yodgorlikda murojaat, undov, chaqiriq yetakchilik qiladi. To‘nyuquq tabiatida tushkunlik, ikkilanish mutlaqo ko‘rinmaydi. Uning harakatlarida, so‘zlarida o‘ziga hamda butun xalqiga buyuk ishonch balqib turadi. Xuddi shu holat uning g‘alabalariga asosiy omil bo‘ladi.

“To‘nyuquq” bitiktoshi – kompozitsion jihatdan yetuk asar. Unda o‘ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Shu kompozitsiyaning o‘zida ham katta badiiylik bor. Bu maqsad to‘laligicha amalga oshgan. U VIII asrdagi adabiy til namunasi sifatida ham qimmatlidir. Asar tilidagi ko‘plab so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida ham aynan qo‘llaniladi. Yodgorlikda o‘rni-o‘rni bilan so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi seziladi. Shuningdek, majoz, matal, maqollardan foydalanish kuchli. Asarda alliteratsiya, takrir, tazod, epitetlardan ham mahorat bilan foydalaniqgan.

“Kul tigin” bitiktoshi qadimgi turkiy adabiyotning o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan yozma yodgorlikdir. Bitiktoshdagi tarixiy voqealar va eposlarga xos suyjetlar, badiiy tasvir vositalari yagona tizimni hosil qilgan. “Kul tigin” bitiktoshi ikki qismdan – kichik va ulug‘ bitikdan iborat. Kichik bitikni ulug‘ bitikning debochasi, deyish mumkin. Yo‘llig‘ tigin bitiktoshda Bilga xoqon tilidan hikoya qilar ekan, turkiy qavmlarning ikki yuz yillik tarixini badiiy tarzda hikoya qiladi, turkiy qavmlarning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan goh yuksalishini, goh tanazzulini dardli lavhalarda bayon qiladi.

Bitiktoshda Bilga xoqonning faoliyati Kul tiginning jasoratlari, ta’rif-tavsifi bilan birgalikda tasvirlanadi. Har ikkalasi ham bitta maqsad uchun – Turk xoqonligini kengaytirish va mustahkamlash kurashdilar. Shubhasiz bitiktoshning bosh qahramoni – Kul tigin obrazidir. Bitiktoshda Kul tiginning qahramonligi va u olib borgan janglar ko‘proq o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, u minib jangga kirgan ot

tasviriga alohida e'tibor qaratilgan: "Kul tigin ... yigirma bir yoshida Chacha Sangunga urush qildik. Eng avval Tadqan Churning bo'z otini minib, hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Ikkinchı bor Ishbara Yamtarning bo'z otini minib, hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Uchinchi bor Yigan silik bekning to'riq otini minib, hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi... Kul tigin Bayirquning oq otini minib, hujum qildi". Mazkur matn bitiktoshning yozma adabiyot sifatida shakllanishida xalq og'zaki ijodi asos bo'lganini ko'rsatuvchi dalildir. Turkiy xalqlarning ertak va eposlarida oq ot har doim muvaffaqiyat ramzi sifatida qo'llanilgan va g'alaba keltirgan. Kul tigin oq otini minib, jangga kirgandagina ot o'lmadi. Demak, Kul tigin epos qahramonlariga xos ko'tarinki ruhda tasvirlanmoqda. Bitiktosh davomida Kul tigining o'limi Turk xoqonligi uchun katta yo'qotish sifatida baholanadi.

Bilga xoqon bitiktoshi mazmunan Kul tigin bitiktoshiga yaqin. Bilga xoqon kichik bitigining birinchi-yettinchi satrlari Kul tigin kichik bitigining birinchi va ikkinchi satrlarining aynan takroridir. Bilga xoqon ulug' bitigining 3-23 satrlari Kul tigin ulug' bitigining 1-30 satrlarining aynan takroridir. Bilga xoqon bitiktoshining muallifi ham Yo'llig' tigindir. Bitiktoshda asosan Bilga xoqonning taxtga o'tirishi, dushman qabilarga lashkar tortib, ularni itoat ettirgani hikoya qilinadi.

Voqealarni aniqlik bilan bayon qilish bitiktoshning diqqatga sazovor tomonidir. Voqealar ishtirokchisi ham, hikoyachi ham Bilga xoqon. Shu bois bu bitiktosh Kul tigin bitiktoshidan farqli ravishda tarixiy-qahramonlik dostoniga emas, balki memuar yo'naliishiga mansub, deb qarash lozim.

Bitiktoshdagi xalq og'zaki ijodiga xos mubolag'a, voqealarni dalillash, ularga badiiy ruh berish uchun keltirilgan parchalar ham borki, bu – Yo'llig' tiginning mahoratidan darak beradi. Yo'llig' tigin Bilga xoqonning jasoratini dalillash, qahramonligini ko'rsatish maqsadida jang manzarasini bir necha so'zda ifoda etadi va Bilga xoqonning qahramonona xatti-harakati kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Bitiktoshda Bilga xoqon insonparvar, uzoqni ko'ra bilgan mohir siyosatchi sifatida tilga olinadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. O'rxun-Enasoy yodgorliklari qanday mavzularda yaratilgan?
- 1.2. Bu yodgorliklarni qadimgi turkiy adabiyotning namunasi sifatida baholash mumkinmi?
- 1.3. To'nyuquqni badiiy obraz sifatida baholash mumkinmi?
- 1.4. Kul tigin va Bilga xoqon bitiklarida vatan, shaxs va erk g'oyalari tasviri haqida nimalar bilasiz?

### **Amaliy mashg'ulot mavzusi: O'rxun yodgorliklari**

**Darsning maqsadi:** O'rxun yodgorliklari haqida ma'lumot berish orqali talabalarni ilk turkiy tarixiy va adabiy manbalar bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. O'rxun yodgorliklari bilan tanishadilar.
2. O'rxun yodgorliklarining xilma-xilligi va ko'pligini izohlaydi.
3. O'rxun obidalarini dastlabki tarixiy va adabiy yodgorliklardan biri sifatida tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** O'rxun yodgorliklari nashr qilingan kitoblar va ular haqidagi ilmiy- ma'rifiy manbalar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. O'rxun obidalarining topilishi haqida ma'lumot bering.
2. O'rxun yodgorliklariga xos xususiyatlarni aniqlang.
3. O'rxun yodgorliklarida qaysi janrlar elementlari mavjudligiga e'tibor qarating.
4. O'rxun obidalariga dastlabki yozma adabiyot yodgorliklari sifatida baho bering.
5. O'rxun obidalarining qadimgi turkiy adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyatini izohlang.

### **Mustaqil ish topshriqlari:**

O'rxun yodgorliklarini g'oyaviy jihatdan tahlil qilish.

1. O'rxun obidalaridagi bosh qahramonlar tasviriga baho bering.
2. O'rxun yodgorliklarida Vatan, xalq tasviri berilgan matnlarni sharhlang.

3. O'rxun obidalarida erk g'oyasi ifodalangan o'rirlarni izohlang.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 38-63.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 45-67.
3. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987. B. 16-45.
4. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. B. 103-181.
5. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 67-87.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 11-95.
2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi. 2002. B. 44-67.
3. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 223-263.

**Amaliy mashg'ulot mavzusi: Enasoy yodgorliklari**

**Darsning maqsadi:** Enasoy yodgorliklari mohiyati va ularning turkiy yozma adabiyot taraqqiyotida tutgan o'rni haqida tasavvur uyg'otish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Enasoy yodgorliklari bilan tanishadilar.
2. Enasoy obidalari namunalarini tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Enasoy yodgorliklari nashr qilingan kitoblar va ular haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Enasoy yodgorliklarining o'rganilishi haqida ma'lumot bering.
2. Enasoy obidalariga xos xususiyatlarni aniqlang.

3. Enasoy yodgorliklarida qaysi janrlar belgilari mavjudligiga e'tibor qarating.

4. Enasoy obidalarini qadimgi turkiy adabiyot namunasi sifatida baholang.

5. Enasoy obidalarining qadimgi turkiy adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyatini izohlang.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

Enasoy yodgorliklarini qadimgi turkiy adabiyot namunasi sifatida baholash.

1. Enasoy yodgorliklaridagi motam tasviriga izoh bering.

2. Enasoy obidalaridagi yozma adabiyotga xos xususiyatlarni aniqlang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 45-67.

2. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987. B. 16-45.

3. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. B. 103-181.

4. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 67-87.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 11-95.

2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi. 2002. B. 44-67.

3. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 223-263.

### **Seminar mavzusi: Kul tigin bitigtoshi**

**Darsning maqsadi:** Kul tigin bitigtoshi haqida tasavvur uyg'otish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Kul tigin bitigi bilan tanishadi.

2. Kul tigin obrazini tahlil qiladi.

3. Kul tigin bitigidagi badiiy tasvir vositalariga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** Kul tigin bitigi nashr qilingan kitoblar, shuningdek, bitig haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Kul tigin bitigi haqida ma'lumot bering.
2. Kul tigin bitigiga xos xususiyatlarni aniqlang.
3. Bitigtoshning janr xususiyatlariga baho bering.
4. Bitigtosh tasviridagi badiiy vositalarni sharhlang.
5. Kul tigin obrazini tahlil qiling.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

Kul tigin bitigini turkiy adabiyot namunasi sifatida baholash.

1. Bitigtoshda qo'llanilgan badiiy vositalarni aniqlang.
2. Bitigtoshda qahramonlik va vatanparvarlik g'oyalari qanday aks etganligiga baho bering.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 46-58.
2. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987. B. 22-29.
3. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. B. 106-116, 134-155.
4. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 68-79.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 19-55.
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 279-300.

**Seminar mavzusi: To'nyuquq bitigtoshi**

**Darsning maqsadi:** To'nyuquq bitigtoshi haqida tasavvur uyg'otish

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1. To'nyuquq bitigi bilan tanishadilar.
2. To'nyuquq obrazini tahlil qiladi.

3. To‘nyuquq bitigidagi badiiy tasvir vositalariga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** To‘nyuquq bitigi nashr qilingan kitoblar, shuningdek, bitig haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. To‘nyuquq bitigi haqida ma’lumot bering.
2. To‘nyuquq bitigiga xos xususiyatlarni aniqlang.
3. Bitigtoshning janr xususiyatlariaga baho bering.
4. Bitigtosh tasviridagi badiiy vositalarni sharhlang.
5. To‘nyuquqning fazilatlarini tahlil qiling.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

To‘nyuquq bitigini turkiy adabiyot namunasi sifatida baholash.

1. Bitigtoshda qo‘llanilgan badiiy vositalarni aniqlang.
2. Bitigtoshga g‘oyaviy jihatdan baho bering.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1987. B. 15-22.
2. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1972. B. 118-123, 155-166
3. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 68-79.

**Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 56-73.
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 266-279.

**Seminar mavzusi: Bilga xoqon bitigtoshi**

**Darsning maqsadi:** Bilga xoqon bitigtoshi haqida tasavvur uyg‘otish

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Bilga xoqon bitigi bilan tanishadilar.
2. Bilga xoqon obrazini tahlil qiladi.
3. Bilga xoqon bitigidagi badiiy tasvir vositalariga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** Bilga xoqon bitigi nashr qilingan kitoblar, shuningdek, bitig haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Bilga xoqon bitigi haqida ma'lumot bering.
2. Bilga xoqon bitigiga xos xususiyatlarni aniqlang.
3. Bitig toshning janr xususiyatlariga baho bering.
4. Bitigtosh tasviridagi badiiy vositalarni sharhlang.
5. Bilga xoqon obrazini tahlil qiling.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

Bilga xoqon bitigini turkiy adabiyot namunasi sifatida baholash.

1. Bitigtoshda qo'llanilgan badiiy vositalarni aniqlang.
2. Bitigtoshga g'oyaviy jihatdan baho bering.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Qadimiy hikmatlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987. B. 30-33.
2. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. B.167-169.
3. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 79-82.

**Qo'shimcha adabiyot:**

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 300-304.

**QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIK LARNING JANR  
XUSUSIYATLARI**

**Asosiy savollar:**

1. Qadimgi turkiy adabiyotda marsiya janri
2. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik shakli va takomili

**Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Janr, shakl, yig'i, marsiya, band, qofiya, to'rtlik, alliteratsiya

**Mavzuga oid muammolar:**

1. Ma'lumki, marsiya janri qadimgi turkiy adabiyotning ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'lgan. Nima uchun janrning arabcha nomi kengroq qo'llaniladi?

2. To'rtliklarning turkiy yozma adabiyotda o'ziga xos taraqqiyot yo'li mavjud. Qadimgi turkiy adabiyotdagi to'rtliklarga xos xususiyatlar keyingi davr she'riyatida ham an'ana sifatida davom etganmi?

**1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:** Marsiya janrining turkiy adabiyotdagi shakllanish jarayoni va taraqqiyoti xususida tasavvur uyg'otish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1.1. Alp Er To'nga marsiyasi haqida so'zlaydi.

1.2. O'rxun-Enasoy obidalaridagi yig'i namunalarini tahlil qiladi.

1.3. "Oltun yoruq" dostonidagi yig'i namunasiga baho beradi.

#### **1-asosiy savolning bayoni:**

Marsiya janrining taraqqiyotini o'rghanish uning turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida shakllanganligini ko'rsatadi. U dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan va keyinchalik yozma adabiyotga o'tgan. Mazkur fikrlarni chuqurroq tadqiq etish maqsadida "Devonu lug'otit turk" asariga murojaat etamiz. Garchi "Devonu lug'otit turk" tilshunoslikka oid qimmatli asar bo'lsa-da, unda berilgan badiiy ijod namunalari ma'lum darajada qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini tasavvur qilishga yordam bera oladi. Masalan, "Devon"da qadimgi turkiylar davlatining hukmdori Alp Er To'nganing mardligi, olijanobligi, shon-shuhratini madh etuvchi, shu bilan birga, uning vafoti munosabati bilan paydo bo'lgan bir qator to'rtliklar uchraydiki, ularning yaratilishi, shubhasiz, eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Mazkur to'rtliklarni marsiya janri namunalari, deb atash mumkin. Ulardagi chuqur dard, alam, iztirob, achinish, umuman, hazin ruh shunday deyish uchun asos bo'la oladi.

Marsiya asar tarkibida tarqoq ko'rinishda uchrasa-da, olimlar orasida uni yaxlit tugal holda tiklashga harakatlar bo'lgan. Bunday ishni dastlab Fitrat amalga oshiradi va 10 ta to'rtlikni jamlab, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927) kitobiga kiritadi.

Marsiyada tasvirlanishicha, Alp Er To‘nganing o‘limi turkiylarning kuchsizlanishi, bilim ahlining e’tibordan chetda qolishi, ezgu ishlarning kamayishi va yovuzlikning kuchayishiga olib keladi. Hatto beklar ham qayg‘uga botadilar:

Beglar atin arg‘urub,  
Qazg‘u ani turg‘urub,  
Mengzi yuzi sarg‘arib,  
Ko‘rkum anga to‘rtulur.

Mazmuni: amirlar otlarini charchatib keldilar. Qayg‘u beklarni ozdirdi, yuzlari za’faron surgandek juda sarg‘aydi.

Marsiya bandlaridan biridagi barchaning bo‘ridek ulub, yoqa yirtib yig‘lashi - qattiq qayg‘uga botishi Alp Er To‘nganing mard, jasur, oljanob kishi ekanligi va xalqning unga hurmati yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi:

Ulushib eran bo‘rla-yu,  
Yirtin yaqa urla-yu,  
Siqrib uni yurla-yu,  
Sig‘tab ko‘zi o‘rtulur.

Mazmuni: Afrosiyob o‘limiga achinib odamlar bo‘ridek uvlashdilar, yoqa yirtishib baqirishdilar. Ba’zan cholg‘uchilar chalg‘usining chinqirig‘i kabi baqirishadilar. (Ular shuncha yig‘lashdilarki, ko‘z yoshlari) ko‘zlarini qopladi.

“Dunyo begi” vafot etsa-da, barcha uni yodida tutadi, ezgu sifatlar bilan eslaydi, fojiali musibatdan qayg‘uradi. Butun tushkunlikning, ko‘ngil cho‘kishining sababi – uning bevaqt dunyoni tark etishi. Umuman, Alp Er To‘ngani doimiy qo‘msash ruhi butun marsiya bo‘ylab hukmronlik qiladi:

Ko‘nglum ichun o‘rtadi,  
Etmish yashig‘ qartadi.  
Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur.

Mazmuni: tushgan musibat bilan ko‘nglim o‘rtandi, bitgan yaramni tirnab, yangilatdi, o‘tgan kunlarimni istatdi, kecha-kunduz izlatdi.

Marsiya barmoq vaznida yaratilgan bo‘lib, murabba’ shaklidagi bandlararo a-a-a-b, v-v-v-b qofiyalanish tartibiga ega. To‘rtliklarning har bir misrasi etti bo‘g‘indan tashkil topgan.

Qadimgi turkiy she’riyatning yirik bilimdonlaridan biri I.V.Stebleva Alp Er To‘nga haqidagi marsiyadan tashqari, yana 4 ta to‘rtlikni birlashtiradi va unga “Noma’lum qahramon haqida marsiya” deb nom qo‘yadi<sup>16</sup>. To‘rtliklarda qahramon jangchining o‘limidan afsuslanish ruhi yetakchidir. Demak, ularni bemalol marsiya janri namunalari deyish mumkin. Muallifning noma’lum qahramon deb atashi bejiz emas. Chunki uning kimligi haqiqatan ham noma’lum. To‘rtliklarning uchtasida uning vatanparvarligi, mardligi, bahodirligi, dushmanga nisbatan beayovligi to‘g‘risida gap boradi:

Yag‘i o‘tin o‘churgan,  
To‘ydin ani ko‘churgan,  
Ishlar uzub kechurgan,  
Tegdi o‘qi o‘ldirur.

Mazmuni: u urush olovini o‘chiruvchi, ularni (dushmanlarni) askar safidan haydab chiqaruvchi, shu bilan birga, qiyin ishlarni bajaruvchi edi. Unga halok qiluvchi zamon o‘qi tegdi.

Marsianing vazni, qofiyalanishi, bo‘g‘inlar tizimi Al Er To‘nga marsiyasiga mos keladi. Har ikkala marsiyadagi lirik qahramonning iztirobi bayoni Enasoy bitiglarini yodga soladi. Chunki Enasoy yodnomalarida ham kishining iztirobi bayoni tasviri asosiy o‘rin tutadi va bu ularning yig‘i janri asosida yuzaga kelganligini ko‘rsatadi. Enasoy yodnomalari vafot etgan kishining tarjimai holi bilan bog‘langan bo‘lib, unda marhumga xos bo‘lgan xususiyatlar tasviri etakchidir<sup>17</sup>: “Avlodlarim, sizlardan ayrildim. Oh, uydagi xonzodalarimdan ayrildim. Sakkiz o‘g‘limdan ayrildim-ey. Xoqonim, elim xizmatida bo‘ldim, dono hukmdorimga xizmat qildim, do‘stlarimga xizmat qildim. Bu men uchun sharafdir.

<sup>16</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. –М.: Наука, 1971. –С. 159-161.

<sup>17</sup> Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. -Т.: 2002. –Б.58.

Xoqonim uchun, Bilga Chiqshan Xoqoniga xizmat qildim, ey xalqim, yigitlik sharafim uchun davlatimga xizmat qildim. Tangriga xizmat qildim. Endi ajoyib do'stlarimdan ayrildim. Bu mangu toshimdir. Men alamli Chiksinman”<sup>18</sup>.

“Chako'l yodnomasi” mazmunidan ko‘rinib turibdiki, u marhum hayotiga aloqador ma'lumotlar bayonidan iborat bo‘lib, I shaxs tilidan hikoya qilinyapti. Enasoy yodnomalarining I shaxs, ya’ni marhum tilidan hikoya qilinishi, ular bilan O‘rxun yodnomalari o‘rtasidagi uyg‘unlikni keltirib chiqaradi: “Turk bo‘dun qanin bo‘lmayin Tabg‘achda adrilti, qanlanti. Qanin qo‘dub Tabg‘achqa yana ichikdi. Tangri ancha temish arinch: qan bartim, qaningga qo‘dub ichikding, ichikduk uchun tengri o‘l temish, arinch. Turk bo‘dun o‘lti, alqinti, yo‘q bo‘lti. Turk sir bo‘dun erinta bo‘d qalmadi”<sup>19</sup>. Mazmuni: Turk xalqi o‘zining xoni bilan bo‘lmay, Tabg‘ach xoqonligiga qo‘schildi, xonlik bo‘ldi. O‘z xonini qo‘yib, yana Tabg‘ach xoqonligiga qo‘schildi. Tangri shunday degan ekan: Xon berdim. Xoningni qo‘yib, taslim bo‘lding. Tabg‘achga taslim bo‘lgani uchun Tangri o‘l, degan shekilli. Turk xalqi o‘ldi, yo‘q bo‘ldi, tugadi. Turk sir xalqi erida birorta ham urug‘ qolmadi.

Kul tigin bitigidagi tasvir To‘nyuquq bitigidan farqli o‘laroq, Bilga xoqon tilidan olib boriladi. Bu esa tasvirning I shaxs tilidan hikoya qilinishi hodisasi barcha O‘rxun yodnomalariga xos emasligini ko‘rsatadi: “O‘gim qatun ulayu o‘glarim, akalarim, kalingunim, qunchuylarim buncha yama tirigi kung bo‘ltachi arti, o‘lugi yurtda yo‘lta yatu qaltachi artigiz! Kul tigin yo‘q arsar, qo‘p o‘ltachi artigiz! Inim Kul tigin kargak bo‘lti, o‘zim saqintim; ko‘rur ko‘zim ko‘rmaztag, bilir biligim bilmaztag bo‘lti, o‘zim saqintim. O‘d tangri yasar, nisi o‘g‘li ko‘p o‘lgali to‘pimis. Ancha saqintim ko‘zda yash kalsar, atida ko‘ngulta sig‘it kalsar, yanturu saqintim, qatig‘ di saqintim: aki shad ulayu iniyi gunim o‘g‘lanim beglarim budunim ko‘zi qashi yablaq bo‘ltachi tip, saqintim”<sup>20</sup>. Mazmuni: Onam xotun, keyingi onalarim, opalarim, kelinlarim, xonzodalarim, tiricingiz cho‘ri bo‘lar edi, o‘ligingiz cho‘lu biyobonda, yo‘lda yotib qolar edingiz! Kul tigin bo‘lmasa, butunlay o‘lar edingiz. Inim Kul tigin vafot etdi, vujudim alam chekdi.

<sup>18</sup> Қадимий ҳикматлар. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1987. -Б. 42-43.

<sup>19</sup> Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 61.

<sup>20</sup> Малов С.Е. O‘sha kitob. -В. 33.

Ko‘rar ko‘zim ko‘rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo‘ldi (es-hushimdan ajraldim), jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o‘ladigan qilib yaratilgan. Shunchalik alam tortdimki, ko‘zga yosh kelganda, ko‘ngilga yig‘i kelganda, qayta g‘am chekdim, qayta qayg‘urdim. Ikki shad, keyingi ini-jiyanim, o‘g‘illarim, beklarimning ko‘zi, qoshi yomon bo‘ladi deb qayg‘urdim.

Mazkur parchani o‘rganar ekan, professor N.Rahmonov undagi Kul tigin tasviriga e’tiborni qaratadi va qahramonning g‘ayri tabiiy faoliyatini xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyat sifatida baholaydi<sup>21</sup>. Darhaqiqat, obrazlardagi mubolag‘ali tasvirning boshqa O‘rxun yodnomalarida ham uchrashi bitigtoshlarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida folklorning ta’siri borligidan dalolat beradi.

O‘rxun bitiglaridagi yig‘i yodnomalar tarkibida uchraydi va ular to‘liq mazkur janr asosiga qurilmagan, balki tarixiy qahramonlik dostonlaridir. Enasoy yodnomalarining asosini esa yig‘i janri tashkil etadi. Bu jihatdan ular o‘zaro farqlanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, marsiya Enasoy yodnomalarida I shaxs - marhum tilidan aytildi. Bu usul marsiyaning alohida shakli hisoblanadi. U qadimgi shomonlikcha inonch tasavvurlarning mahsuli bo‘lib, marhumming ruhi tirikdir, degan qarash asosida shakllangan.

Yig‘i janri namunalari turkiylarning tarjima adabiyotida ham mavjud. Mazkur fikrning tasdig‘ini xitoychadan o‘girilgan “Oltin yoruq” dostonida ko‘rish mumkin. “Oltin yoruq”dagi “Shahzoda va bars” haqidagi afsonada kichik shahzoda - Mag‘astvining o‘zini qurban qilishi ushbu janrni yuzaga chiqaradi:

Na ada arti adayim,  
Ko‘rkla kiya o‘kukum.  
O‘lmak amgak nachukin,  
O‘ngra kalip arturdi.  
Sintida o‘ngra o‘lmakig,  
Bulayin, ni kunkiam,

---

<sup>21</sup> Раҳмонов Н. Урхун-Енисей ёдгорликлари ва туркий эпослар. Ф.ф. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 1991. –Б. 127.

Ko‘rmayin arti muni tag  
 Ulug‘ achig‘ amgakig<sup>22</sup>.  
 Nima g‘am bu, jonim,  
 Ko‘rkligim, dilim payvandi,  
 O‘lim, azob qandaydir,  
 Senga keldi (va) yo‘q qildi.  
 Agar senga o‘lim oldin kelgan(ini bilsam edi),  
 (Uni) men (o‘zimga) olar edim, ey quyoshim,  
 Ko‘rmas edim bunday  
 Katta achchiq g‘amni.

Ko‘rinadiki, parchadagi onaning iztirobi bayoni tasviri uni yuqorida keltirilgan namunalarga yaqinlashtiradi va yig‘i janrining turkiy adabiyotda o‘ziga xos shakllanish yo‘liga ega ekanligini bildiradi.

Yig‘i janrining taraqqiyoti masalalarini o‘rganish qadimgi turkiy adabiyotda yig‘i tasvirining ikki yo‘nalishda amalga oshirilganligini ko‘rsatadi:

1. Yig‘i marhum tilidan bayon qilingan (Enasoy yodnomalari).
2. Yig‘i o‘zga kishilar, asosan, marhumning yaqinlari tomonidan bayon qilingan (Kultigin bitigi, “Oltin yoruq” dostonidagi yig‘i, Alp Er To‘nga marsiyasi).

Lekin har ikkala holatda ham yig‘i janrini epiklashtirish holati kuzatiladi. Bu jarayon qadimgi turkiy adabiyotda janrlar tizimining odad va marosimlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Janrning keyingi davrlardagi taraqqiyoti davomida asta-sekin yig‘ining marhum tilidan aytilishi hodisasi yo‘qola borgan va uning o‘rniga boshqa hayotiy shaxslar tomonidan ijro etilishi janr mezonlaridan biriga aylangan.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, yozma adabiyotda yig‘i sof janr sifatida Enasoy yodnomalari orqali yuzaga chiqdi. O‘rxun yodgorliklarida esa boshqa janrlar bilan aralash holda yashadi. Keyingi taraqqiyot bosqichlarida

---

<sup>22</sup> Малов С.Е. О‘sha kitob. –С. 178-179

shakllanib, o‘ziga xos qoidalarga ega bo‘ldi va marsiya degan atama orqali nomlandi. Janrning arabcha nomlanishi islomdan avvalgi davrlarda adabiyotshunoslik ilmining taraqqiy etmaganligi bilan izohlanadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Yig‘i va marsiya atamalari o‘rtasida farq bormi?
- 1.2. Marsyaning turkiy adabiyotda paydo bo‘lishi haqida nimalar bilasiz?
- 1.3. Bu janrga xos xususiyatlarni sanang.
- 1.4. Marsyaning keyingi davrlardagi taraqqiyotida boshqa xalqlar adabiyotining ta’siri bormi?

**2-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga to‘rtlik shaklining paydo bo‘lishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot berib, uning turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida shakllanganligiga e’tibor qaratish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. Moniylik she’rlaridagi to‘rtliklarni tahlil qiladi.
- 1.2. Buddaviylik she’rlaridagi to‘rtliklarga baho beradi.
- 1.3. Qadimgi turkiy adabiyotdagi mavjud to‘rtliklarni islom davridagi to‘rtliklar bilan qiyoslaydi.

### **2- asosiy savolning bayoni:**

To‘rtliklar Sharq adabiyotida, xususan, turkiy xalqlar adabiyotida uzoq tarixga ega bo‘lib, qadimdan turkiy xalqlar she’riyatida keng qo‘llanilib keladi. Hozirgi mavjud manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, bizgacha to‘rtliklarning turkiy yozma adabiyotdagi eng qadimgi namunalari Moniy va Budda muhitida yaratilgan she’rlar orqali yetib kelgan. Mazkur she’rlar buddaviylik va moniylik dini g‘oyalari bilan sug‘orilganligi sababli g‘oyaviy jihatdan keyingi davr she’rlaridan farqlanadi. Har ikkala diniy oqimdagи mavjud she’rlarni shakliy-poetik tomondan kuzatish ularda to‘rtliklarning yetakchi mavqega ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi,
Tang tengri ozi kelti.	Tong tangrisi o‘zi keldi.
Tang tengri kelti,	Tong tangrisi keldi.

Tang tengri ozi kelti.      Tong tangrisi o‘zi keldi.

Korugme kun tengri,      Ko‘ringan kun tangri,  
Siz bizni kuzeding.      Siz bizni qo‘riqlang.  
Korunugme ay tengri,      Ko‘ringan oy tangri,  
Siz bizni kurtgaring.      Siz bizni qo‘riqlang.

“O‘lim tasviri” nomli she’r tarkibidagi to‘rtlikka e’tibor qilaylik:

Tuzun bilge kishiler tirilelim,  
Tengrining bitigin biz ishidelim,  
To‘rt ilig tengrilerke tapinalim,  
To‘rt ulug‘ emgekde qurtulalim. (ET\$, 24-bet)

Asil, bilimli kishilar to‘planaylik,  
Tangrining kalomini tinglaylik.  
To‘rt hokim tangriga sig‘inaylik,  
To‘rt og‘ir azobdan qutulaylik.

Ko‘rinadiki, dastlabki bandning barcha misralari o‘zaro qofiyalangan bo‘lib, “tirilelim”, “ishidelim”, “tapinalim” va “qurtulalim” so‘zлари “a-a-a-a” ko‘rinishda misralar orasidagi qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan. Bunday qofiyalanish tizimi she’rning ikkinchi, to‘rtinchi, beshinchi bandlarida ham davom etadi.

Moniyni ulug‘lashga bag‘ishlangan madhiyadagi ohangdoshlik tovushlar takrori asosiga qurilgan. She’rning har bir to‘rtligida vertikal holdagi tovushlar takrori (alliteratsiya) mavjud. Jumladan, dastlabki to‘rtlik “a” tovushi asosidagi ohangdoshlikdan tarkib topgan bo‘lsa, bunday xususiyat keyingi to‘rtlikda ham davom etadi, ya’ni uning misralari ham “a” tovushli so‘zlar bilan boshlangan:

Anuntumuz sizinge,  
Asra ko‘ngulin yukungeli.  
Aling amti umug‘ inag‘,  
Alqunung barcha yukunchin. (ET\$, 36-bet)

Olchoq ko‘ngul ila topinaylik deb

so‘ng ko‘ngildan egilgani.

Har kishining butun bu ta’zimlarini  
endi qabul eting, ey umid, ishonchimiz

She’r davomida to‘rtliklarning o‘zaro qofiyalangan o‘rinlari ham ko‘zga tashlanadi, lekin ularning qofiyalanish tizimi birday shaklga ega emas. Qofiyalangan to‘rtliklarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. “a-b-v-b” shakldagi juft misralari qofiyalanib kelgan to‘rtliklar.
2. “a-b-a-v” ko‘rinishdagi toq misralari o‘zaro qofiyaga ega bo‘lgan to‘rtliklar.
3. “a-a-a-a” tarzida hamma misralari qofiyalangan to‘rtliklar.
4. “a-a-a-b” shaklda dastlabki uch misrasi qofiyalangan to‘rtliklar.
5. “a-b-b-b” tarzida birinchi misra ochiq holda keyingi misralari qofiyalangan to‘rtliklar.
6. “a-b-a-a” ko‘rinishdagi qofiyaga ega bo‘lgan to‘rtliklar.

Ko‘rinib turibdiki, qofiya tizimi qanday shaklga ega bo‘lishidan qat’i nazar, to‘rtliklarning har birida unli tovush (assonans) yoki undosh tovushlarning (alliteratsiya) vertikal holdagi takrori ko‘zga tashlanadi. Ularning she’rdagi ohangdoshlikni ta’minalashga va misralarning mazmunan bog‘langanligiga xizmat qilganligi shubhasizdir.

Nima uchun qadimgi turkiy moniylik she’rlarining qofiyalanishida ma’lum bir qoida yo‘q, degan savol tug‘iladi. Moniylik she’rlari qofiyalanish tizimining birday shaklga ega emasligi, bizningcha, ularda alliteratsiyaning yetakchilik qilishi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, alliteratsiya moniylik she’rlarining asosiy xususiyatidir. Zero, bo‘g‘inlar miqdorining erkinligi, misralarning birday tovushlar bilan boshlanishi, tovushlar takrorining she’r ritmini hosil qilishdagi yetakchiligi kabilar ayni alliteratsion she’rning belgilari hisoblanadi.

To‘rtliklarning qadimgi turkiy adabiyotdagi namunalarini Buddaga topingan turkiylarning she’riyatida ham kuzatish mumkin:

O‘ng bashlap adqang‘ularqa biligler qachar,  
O‘kush qara ayig‘ yo‘llug‘ urug‘ug‘ sachar.

O‘glug kishi istim tutchi yasmaqsiz bachar,

O‘seliksiz yig nirvanning qapig‘in achar.

Mazkur to‘rtlik “Sergaplik rangi” nomli she’r tarkibida uchraydi. Buddaviylik she’rlari orasida “Inonch” nomli she’r ham to‘rtliklar shaklida yozilganligi alohida xususiyatga ega. U besh band - 20 misradan tashkil topgan. She’rning dastlabki bandlariga e’tibor qilaylik:

Alqu qamag‘ uch o‘dki burqanlarqa,

Arish arig‘ nirvan to‘zlug iduq nomqa.

Ayag‘ulug‘ arya sangga quvrag‘larqa,

Ayap kulep alqu o‘dte inanurmen.

Burqanlarning ulushining pramanusi,

Bo‘lsar neche ancha sanlig‘ ulush sayu

Bo‘dlar o‘ze alqu o‘dte burqanlarqa,

Bulidlayu tapig‘ o‘ze tapinurmen.

Ko‘rinadiki, birinchi to‘rtlikning uch misrasi o‘zaro ketma-ket qofiya asosiga qurilib, to‘rtinchi misra ochiq qolyapti. Ikkinci to‘rtlik misralari orasida esa qofiyalanish holati mavjud emas. Faqat to‘rtinchi misradagi “tapinurmen” so‘zi avvalgi bandning oxirgi misrasidagi “inanurmen” so‘zi bilan ohangdoshlik hosil qilib, bandlararo qofiyalanishni yuzaga keltiryapti. Bu - bandlararo qofiyadoshlik butun she’r oxirigacha davom etadi va uni amalga oshirishda keyingi bandlarda “o‘kunurnen”, “o‘girurmen”, “ildinurmen” so‘zleri xizmat qiladi. Shu jihat bilan she’r xalq og‘zaki ijodi she’rlariga yaqinlashadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi qofiya tizimini maxsus o‘rgangan Farmon Rayhonov bunday tadrijli qofiyalanish usulini folklor xususiyatlaridan kelib chiqqan holda voqeaband qofiya deb atash lozimligini qayd etadi<sup>23</sup>. Demak, buddaviylik she’rlarining yaratilishida mualliflar qadimgi turkiy og‘zaki ijod namunalari yutuqlariga tayanganlar hamda folklor an‘analarini she’riyatga singdirishga harakat qilganlar. Bundan qadimgi turkiy

---

<sup>23</sup> Райхонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. –Б. 47.

adabiyotda janrlarning folklor adabiy tizimi mavjud bo‘lgani singari shakliy-poetik xususiyatlari ham og‘zaki ijod asosida shakllangan, degan fikrga kelish mumkin. Chunki bandlararo qofiyadoshlik “O‘n turli niyoz usuli”, “Jonlilarga foydali bo‘lmoq”, “Itifar”, “Yaxshi tilak” kabi she’rlarda ham uchraydi.

To‘rtliklar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham mavjud bo‘lib, mazkur to‘rtliklarning ko‘philigi xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblanadi va ular asosan turkiy xalqlar folklorida ming yillardan beri etakchi mavqega ega bo‘lib kelgan barmoq vaznida yaratilgan. “Devonu lug‘otit turk” orqali yetib kelgan badiiy ijod namunalarining vazni xususida olimlarning fikrlari turlichadir. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar ularni barmoqda yaratilganligini e’tirof etishsa, ba’zilar esa aruz vazniga mansub deb hisoblashadi.

“Devonu lug‘otit turk”dagi she’riy parchalarning yaratilish ildizi juda qadim zamonalarga borib taqaladi. “Devon” bilan maxsus shug‘ullangan olim Solih Mutallibovning fikricha, “Devon”da keltirilgan adabiy, she’riy parchalar, umuman, xalq og‘zaki ijodi namunalari faqat XI asr adabiyotininggina namunasi bo‘lmay, balki ayni paytda ularning katta bir qismi juda uzoq davrlar mahsulidir<sup>24</sup>. Darhaqiqat, “Devon”dagi qo‘shiqlar, she’riy parchalarni maxsus o‘rganish, tahlil qilish yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

### **Nazorat savollari:**

- 2.1. Moniylik va buddaviylik she’rlaridagi to‘rtliklar o‘rtasida o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlar mavjudmi?
- 2.2. Moniylik she’rlaridagi to‘rtliklarga xos xususiyatlarni bilasizmi?
- 2.3. Qadimgi turkiy adabiyotdagi to‘rtliklar islom davri to‘rtliklari tarqqiyotida qanday rol o‘ynagan?
- 2.4. To‘rtlik shakli asosida qanday janrlar yuzaga kelgan?

### **Amaliy mashg‘ulot mavzusi: Qadimgi turkiy adabiyotning janrlar tizimi**

**Darsning maqsadi:** Turkiy adabiyotda janrlarning shakllanishi, taraqqiyoti va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

<sup>24</sup> Муталлибов С. Сўз боши // Девону лутотит турк. 1-том. -Т.: Фан, 1960. –Б. 34.

1. Tarixiy-qahramonlik dostonlari haqida ma'lumot beradi.
2. Madh janrining shakllanishi va taraqqiyotiga baho beradi.
3. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlarning takomilini tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Qadimgi turkiy adabiyot namunalari nashr qilingan manbalar va ular haqidagi ilmiy kitoblar.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. O'rxun yodgorliklarida qaysi janr belgilari ko'proq uchrashi haqida ma'lumot bering.
2. Yig'i janri taraqqiyotini turkiy adabiyot namunalari asosida tahlil qiling.
3. Madh janrining O'rxun yodgorliklaridagi namunalarini baholang.
4. Janrlar taraqqiyotidagi izchillikni izohlang.
5. Turkiy adabiyotning ichki qonuniyatları asosida shakllangan janrlarni aniqlang.

#### **Mustaqil ish toprshiriqlari:**

Madh janrining turkiy adabiyotdagi taraqqiyotini tahlil qilish

1. Madh janriga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. Madhning turkiy adabiyotdagi takomilini tahlil qiling.
3. Islom davridagi madhning taraqqiyotida oldingi davrdagi madh namunalarining roli qanday ekanligini izohlang.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 55-60
2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006. B. 3-43.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 324-356.

#### **Seminar mavzusi: Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik shakli**

**Darsning maqsadi:** Turkiy adabiyotda to'rtliklarning shakllanishi, taraqqiyoti va o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Islomdan oldingi davr adabiyoti to‘rtliklari haqida ma’lumot beradi.
2. Islom davri adabiyotida to‘rtliklarning shakllanishi va taraqqiyotiga baho beradi.
3. To‘rtliklarning turkiy adabiyotdagi takomilini tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Qadimgi turkiy adabiyot namunalari nashr qilingan manbalar va ular haqidagi ilmiy kitoblar.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Moniylik adabiyotida qaysi janr namunalari ko‘proq uchrashi haqida ma’lumot bering.
2. To‘rtliklar taraqqiyotini turkiy buddaviylik adabiyoti namunalari asosida tahlil qiling.
3. To‘rtliklarning “Devonu lug‘otit turk”dagi namunalarini baholang.
4. To‘rtliklarning “Qutadg‘u bilig”dagi namunalari taraqqiyotidagi izchillikni izohlang.
5. To‘rtliklarning turkiy adabiyotning ichki qonuniyatları asosida shakllanganlini misollar yordamida asoslang.

### **Mustaqil ish toprshiriqlari:**

To‘rtliklarning turkiy adabiyotdagi taraqqiyotini tahlil qilish

1. Moniylik to‘rtliklariga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. Buddaviylik to‘rtliklari takomilini tahlil qiling.
3. Islom davri to‘rtliklari taraqqiyotida oldingi davr to‘rtliklarining roli qanday ekanligini izohlang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 55-60
2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodи, 2006. B. 3-43.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 324-356.

### **Seminar mavzusi: Qadimgi turkiy adabiyotda marsiya janri**

**Darsning maqsadi:** Turkiy adabiyotda marsiyaning shakllanishi, taraqqiyoti va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

#### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Islomdan oldingi davr adabiyotidagi marsiya namunalari haqida ma’lumot beradi.
2. Islom davri adabiyotida marsiyaning shakllanishi va taraqqiyotiga baho beradi.
3. Marsiyaning turkiy adabiyotdagi takomilini tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Qadimgi turkiy adabiyot namunalari nashr qilingan manbalar va ular haqidagi ilmiy kitoblar.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. O‘rxun yodgorliklarida qaysi janr namunalari ko‘proq uchrashi haqida ma’lumot bering.
2. Marsiya taraqqiyotini turkiy buddaviylik adabiyoti namunalari asosida tahlil qiling.
3. Marsiyaning Enasoy yodgorliklaridagi namunalarini baholang.
4. Marsiyaning toshbitiklardagi namunalari taraqqiyotidagi izchillikni izohlang.
5. Marsiyaning turkiy adabiyotning ichki qonuniyatları asosida shakllanganlini misollar yordamida asoslang.

#### **Mustaqil ish toprshiriqlari:**

Marsiyaning turkiy adabiyotdagi taraqqiyotini tahlil qilish

1. Qadimgi turkiy adabiyotdagi marsiyalarga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. Marsiyaning turkiy adabiyotdagi takomilini misollar asosida tahlil qiling.
3. Islom davri marsiyalari taraqqiyotida oldingi davr marsiyalarining roli qanday ekanligini izohlang.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 55-60

2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006. B. 3-43.

**Qo‘sishimcha adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. B. 324-356.

**BUDDA OQIMIDAGI QADIMGI TURKIY ADABIYOT**

**Asosiy savollar:**

1. Buddaviylik oqimi taraqqiyoti va uning turkiylar hayotida tutgan o‘rnii.
2. Buddaviylik oqimi ta’sirida yaratilgan turkiy she’riyat.

**Mavzuga oid asosiy tayanch tushunchalar:**

Budda, buddaviylik, “Oltin yoruq”, braxmanizm, braxman, Ku tay, Mag‘astvi, Siddxartxa, to‘rt oliyjanob haqiqat.

**Mavzuga oid muammolar:**

1. Buddaviylik oqimining asoschisi bo‘lgan Siddxartxa nima uchun dabdabali hayotni tark etib, zohidlikni afzal bildi. Buning sabablari nimalarda deyish mumkin?

2. Ma’lumki, buddaviylik oqimiga o‘z davrida turkiylarning ko‘pchilik urug‘lari ham e’tiqod qilishdi. Bu oqimning qaysi jihatlari turkiylarni o‘ziga jalb qildi?

**1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga buddaviylik oqimining shakllanishi, taraqqiyoti va turkiylar muhitiga kirib kelishi haqida ma’lumot berish.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1.1. Buddaviylik oqimining paydo bo‘lishi, mohiyati va taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi.

1.2. Buddaviylik oqimining turkiylar hayotiga kirib kelishi sabablarini izohlaydi.

1.3. Turkiy buddaviylik adabiyotining yuzaga kelish omillarini tahlil qiladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Buddaviylik dunyodagi yirik va keng tarqalgan dinlardan biridir. Uning vatani – Hindiston. O’rta va Markaziy Osiyoda bu dinning kirib kelishi uzoq tarixga ega. Ayniqsa, Kushon imperiyasi davrida buddaviylikning mavqeい ancha baland bo’ldi.

Budda tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Tirik mavjudodlarni azob-uqubatlardan qutqarish Buddaning asosiy maqsadi bo’lgan. Uning asl ismi – Siddxartxa. Bu ismning ma’nosi “topshiriqni bajaruvchi” deganidir.

Otasi Siddxartxaning diniy ruhda tarbiya topishini istamadi. U hayotning salbiy tomonlarini o‘g‘lidan yashirib dabdabali hayotni muhayyo qildi. O‘g‘liga haqiqiy dunyoviy tarbiya berdi, chiroli qizga uylantirdi.

Bir kuni Siddxartxa Gautama shahri bo‘ylab sayr qilib yurgan edi, qartaygan bir cholni ko‘rdi. Uning butun tanasiga yara toshgan, tarkidunyo qilgan, yillar davomida qaddi bukulgan edi. Shu tariqa, Siddxartxa jonli mavjudotlarning muqarrar azob chekishini bildi. Shu kechasi hech kimga bildirmay saroyni tark etdi va zohidlikda azoblarda qutqarish yo‘llarini izlay boshladi. Yetti yil davomida kohin braxmanlarning muqaddas kitoblarini o‘qidi. “To‘rt oliy janob haqiqat”ni fahmladi.

Siddxartxa Bug‘u tog‘i degan joyda birinchi marta va’z aytdi va aytgan va’zi Buddha ta’limotiga asos bo‘lib qoldi. U 40 yil davomida shahar va qishloqlar bo‘ylab kezdi, o‘z ta’limotini targ‘ib qildi.

Afsonaga ko‘ra, Buddha 80 yoshida vafot etgan. U o‘limi oldidan odamlarga shunday degan ekan: “Ey odamlar, hamma yaratilgan narsalar buzilishga mahkum qilingan. Kuchingiz boricha qutqarishga intiling!”.

Buddaviylik o‘z asosiga ko‘ra braxmanizm bilan zich bog‘langan. Ruhning ko‘chishi braxmanizm ta’limotidir.

Buddaviylikda qayta tug‘ilishga ishonch katta rol o‘ynaydi. Xuddi shu g‘oya Ku Tay afsonasida bor.

Islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyot namunalari orasida buddaviylikka mansub bo‘lgan “Oltin yorug” asarining ham o‘z o‘rni bor. “Oltin yorug” sudurlardan tashkil topgan. Sudur sanskritcha so‘z bo‘lib, rishta, qoida, qo‘llanma ma’nolarini anglatadi. Sudur hind adabiyoti, xususan, falsafiy adabiyotining alohida janri bo‘lib, biron ta’limotning asoslari bayon qilinadi. “Oltin yorug”da ma’lum yaxlitlikni hosil qilgan bir qancha sudur jamlanib, xuddi ipga tizilganday tasavvur qoldiradi. Sudur janri afsonalarni, turli muloqot shakllarini, qoidalarni, o‘gitlarni, pand-nasihatlarni o‘z ichiga oladi. “Oltin yorug” turkiy tilli xalqlar orasida e’tiborga molik asar bo‘lgani uchun ham X-XVIII asrlar davomida o‘n marta ko‘chirilgan va sharqdagi ko‘p tillarga tarjima qilingan. “Oltin yorug”ning Radlov-Malov nusxasi o‘n kitobdan (bo‘lim)dan iborat. Asarni 1910-yili rus olimi S.E.Malov Xitoyning Gansu viloyatiga qarashli Vinshgu qishlog‘idagi buddaviylar ibodatxonasidan topgan. Asar qo‘lyozmasi 710 sahifadan iborat bo‘lib, 1687-yili ko‘chirilgan. Hozir bu nusxa Sankt-Peterburgning Osiyo muzeyida saqlanadi.

“Oltin yorug”ning yaratilishida turkiy xalqlar mifologiyasi va afsonalari ham ta’sir ko‘rsatgan. “Oltin yorug”ning birinchi kitobida Erlik xon obrazi bor. Erlik xon turk-mo‘g‘ul mifologiyasida keng tarqalgan. Bu obraz Ku tau afsonasida ham uchraydi. Marhumlar shohligi hukmdori bo‘lgan Erlik xon Ku tauni yovuz qilmishlari uchun jazolamoqchi bo‘ladi. Afsonalarga ko‘ra Erlik qadimda ruhoniy bo‘lib, avliyolikning eng yuqori darajasiga erishgan va g‘ayritabiyy qudratga ega bo‘lgan edi. Uning o‘limi haqida ikki rivoyat bor: birinchisi – u o‘g‘irlikda ayblanib, tuhmatning qurboni bo‘lgan, ikkinchisi – talonchilarning jinoyatlariga beixtiyor guvoh bo‘lib qolgan. Oqibatda talonchilar tomonidan o‘ldirilgan. Shunisi ajablanarliki, Erlikning boshi olingandan keyin ham, uning tanasi tirik qolgan. Erlik kallasi o‘rniga ho‘kizning boshini o‘rnatib olib, qo‘rqinchli qiyofaga ega bo‘lib qolgan. Xullas, Erlik insonlar tasavvurida halokat keltiruvchi iblis sifatida qolgan. “O‘lim g‘olib” Yamandag Erlikni mag‘lub etib, yer osti dunyosiga jo‘natib yuborgan. Shunday qilib, Erlik narigi dunyoning hukmdori va hakami bo‘lib qolgan.

“Oltin yorug” mazmunan va mohiyatan buddaviylik maxayana mahabiga mansubdir. Maxayana ta’limoti O’rta Osiyoda, ayniqsa, Kushon davlatida shoh Kanishka hukmronligi davrida keng tarqalgan va rsmiy diniy oqim darajasiga ko‘tarilgan. Oltin yorug“ asarining qadimgi turkiydagi to‘liq nomi “Altun onglug, yaruq, yaltiriqlig, qopta ko‘tulmish no‘m iliki alig no‘m bitig – Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq hamma (narsa)dan ustun turadigan no‘m podshohi nomli no‘m bitigi” deb nomlanib, hozirgacha “Oltin yorug” deb atalib keladi. Asarning sanskritcha nomi “Suvarnapraxasa”dir.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. Buddaviylik oqimi qaysi davrlardan boshlab shakllana boshlagan?
- 1.2. Buddaviylik oqimining mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?
- 1.3. Siddxartxa haqida nimalar bilasiz?
- 1.4. Ku Tay afsonasining mohiyati nimalardan iborat?
- 1.5. Mag‘astvining o‘zini qurbon qilishi sababini qanday izohlaysiz?

**2-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga buddaviylik ta’sirida yaratilgan turkiy she’riyatning shakllanishi to‘g‘risida ma’lumot berib, ular idrokida bu she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

- 1.1. Qadimgi turkiy buddaviylik she’rlarini yuzaga kelishi haqida so‘zlaydi.
- 1.2. Buddaviylik she’rlarini tahlil qiladi.
- 1.3. Buddaviylik she’rlarining janr xususiyatlariga baho beradi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

She’riyatning qadimgi turkiy adabiyotdagi namunalarini Buddaga topingan turkiylarning adabiyotida ham kuzatish mumkin. “Budda dini YI-YIII asrlar davomida O’rta Osiyoda tarqala boshlagan edi. Biroq Ko‘k-turk hukmdori Bilge Xon va uning vaziri To‘nyuquq bu dinni yumshoqlik va miskinlikni targ‘ib etgani, jangu jadalni va hayvon so‘yishni man qilgani, xullas, turklarning hayot tarzlariga nouyg‘un kelgani uchun rad etdilar. Chunki Budda dini millatning harb qudratini

buzib, Chin xavfiga yo‘l ochishi mumkin edi”<sup>25</sup>. Professor Nasimxon Rahmonovning ta’kidlashicha, buddizmning qabul qilinishiga bo‘lgan qarshilik Turk xoqonligining sharqiy qismiga aloqador. Shu sababli O‘rxun va Enasoy yodnomalarida buddizmning ta’siri sezilmaydi<sup>26</sup>. Shomonlik xoqonlikdagi asosiy din bo‘lsa-da, bu davrlarda turkiylarning muqim bir dinga sig‘inganliklari kuzatilmaydi. Chunki turli turkiy urug‘ va qabilalar shomonlik bilan birga, moniylik va buddizmga aralash holda e’tiqod qo‘yanlar. Har bir din vakillari o‘z dinining g‘oyalarini yoyish hamda targ‘ib etishda adabiyotning kishilarga bo‘ladigan ta’siridan unumli foydalanishga harakat qildilar va natijada mazkur dinlar ta’siridagi badiiy ijod shakllana boshladi. Shu tariqa qadimgi turkiy budda she’riyati maydonga keldi. L.Yu.Tugushevaning qayd etishicha, budda muhitida yaratilgan turkiycha she’rlar 1500 misradan ortadi<sup>27</sup>. Mazkur she’rlarning hajmi turlichcha bo‘lib, ular dinning qonun-qoidalari, shuningdek, buddaviylik g‘oyalarining targ‘ibiga bag‘ishlangan. She’rlardan ayrimlarining muallifi ma’lum. Umuman, buddizmning ta’sirida yashagan va ijod qilgan hamda nomlari bizgacha yetib kelgan shoirlar anchagina uchraydi. Ki-ki, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Kul Tarqon, Chisuya Tutung, Qalim Keysi, Singku Seli Tutung kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

“Sergaplik rangi” she’ri 60 misradan tarkib topgan to‘rtliklar tizimidagi 15 banddan iborat bo‘lib, quyidagi misralar bilan boshlanadi:

O‘ng bashlap adqang‘ularqa biligler qachar,  
O‘kush qara ayig‘ yo‘llug‘ urug‘ug‘ sachar.  
O‘glug kishi istim tutchi yasmaqsiz bachar,  
O‘seliksiz yig nirvanning qapig‘in achar.

Band misralari “qachar”, “sachar”, “bachar” va “achar” so‘zлари orqali o‘zaro uyg‘unlashgan holda qofiya tarkibidagi undosh hamda unli tovushlar takrori she’rdagi jarangdorlikni yuzaga keltirib, “a-a-a-a” ko‘rinishdagi qofiya shaklini

<sup>25</sup> Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. -Т.: Чўлпон, 1995. –Б. 13.

<sup>26</sup> Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. -Т.: Халқ мероси, 1993. –Б. 103.

<sup>27</sup> Тугушева Л.Ю. Поэтические памятники древних уйгуров // Тюркологический сборник, 1972. –Москва: Наука, 1973. -С. 243.

hosil qilgan. Har bir misradagi bo‘g‘inlar soni 13 ga teng. Barcha misralar qadimgi turkiy she’riyatga xos xususiyat – bir xil tovushli so‘zlar bilan boshlanayapti. She’rning qolgan bandlaridan 7 tasi (2,3,6,8,12,14,15-bandlar) ham xuddi “a-a-a-a” tarzida qofiyalangan bo‘lsa-da, lekin ayrim to‘rtlik misralaridagi bo‘g‘inlar miqdori xilma-xildir. Xusan, 3,8,14-bandlar misralari xuddi birinchi banddagidek 13 bo‘g‘inli bo‘lsa, 6-band misralari 14 bo‘g‘indan tuzilgan. Qolgan 2,12,15-to‘rtliklar misralaridagi bo‘g‘inlar miqdori ham bir xil emas: 13 yoki 15 bo‘g‘inlidir.

She’rdagi ikkinchi qofiya ko‘rinishi “a-b-a-b” shaklga ega bo‘lib, u to‘rtlikning toq va juft misralarida vujudga kelgan:

Aqashtaqi ay tengrini atqanmish bo‘lup,  
Ayataqi erdinini ichg‘inip salma.  
Alqi o‘dte tashtin singar tilemish bo‘lup,  
Anuq buzni suv timetin arsiqip qalma.

To‘rtlikning to‘rtala misrasi ham 13 bo‘g‘indan tuzilgan va “a” tovushli so‘zlar bilan boshlangan. Bandga xos bo‘lgan jihatlardan yana biri unda radifning ishtirot etishidir. Biroq u barcha misralarda ham mavjud bo‘lmay, balki faqat birinchi va uchinchi misralardagina qo‘llangan, xolos. Ikkinci va to‘rtinchisini misralar esa qofiyaga ega bo‘lgan holda radifsizdir. Bo‘g‘inlar miqdorining teng emasligini hisobga olmaganda, bunday xususiyat she’rning keyingi beshinchi bandida ham xosdir.

Uchinchi guruh to‘rtliklari yanada o‘zgacha bo‘lib, “b-a-v-a” shaklda qofiyalanganligi bilan ajralib turadi. Ularda toq misralar ochiq qolgan va juft misralarning oxiridagi so‘zlar ohangdoshlik kasb etgan. Mazkur guruhga oid uch to‘rtlikdan ikkitasida (o‘ninchisi va o‘n birinchi bandlarda) alohida xususiyat kuzatiladi, ya’ni ularning birinchi va uchinchi misralarida to‘liq qofiya mavjud bo‘lmay, faqat radif qo‘llangandir. Ikkinci va to‘rtinchisini misralar esa o‘zaro qofiyalanib kelgan:

Yarup yashup qatchig‘larta bo‘ldachi erip,  
Yaba yirtinchug bir yintem ider tuymayur.

Yasimuqcha bo‘di intin anta yo‘q erip,  
Yamaracha ko‘rugin busdachi erur.

Dastlabki misradagi “erip” so‘zi uchinchi misrada yana qaytarilib, qofiya vazifasini bajarib kelyapti. Radifning qofiya o‘rnida qo‘llanishi - qofiyasiz misralar oxiridagi takror so‘nggi guruhga kiruvchi to‘rtlikning asosiy belgisi hisoblanadi. Chunki uning har bir misrasida ohangdosh so‘zlar o‘rniga bir so‘z takrorlanib qo‘llanadi:

Yay-ki suvni kis-ki odte buz tiyur-ler,  
Yana yay-in kis-ki buzni suv tip tiyur-ler.  
Yangilduk-ta cin burkan-ni kongul tiyur-ler,  
Yangilmaduk-ta kongul-ni ok burkan tiyur-ler.

Takror so‘zning qofiya vazifasini bajarishi islom muhitining mahsuli bo‘lgan “Hibat ul-haqoyiq” dostonida ham uchraydi:

Bu ochun rabot ul tushub ko‘chguluk,  
Rabotqa tushukli tushar ko‘chguluk.  
O‘ng arqish uzadi qo‘pup yo‘l tutub,  
O‘ngi qo‘pmish arqish necha ko‘chguluk<sup>28</sup>.

Bu yerda “ko‘chguluk” so‘zi to‘rtlik misralarini bir-biriga bog‘layapti va ohangdoshlik hosil qilib, qofiya vazifasini bajarib kelyapti. Mazkur usul adabiyotshunoslikda epifora deyiladi. Epifora “... muayyan tushuncha yo jumla ma’nosini ta’kidlaydi; ohangdoshlik va musiqiylikni rag‘batlantiradi, misralarni bayt yo bandlarga uyshtiradi, bunda u qofiya vazifasini o‘rindoshlik asosida bajaradi”<sup>29</sup>.

Demak, epifora – radifning qofiya o‘rnida qo‘llanishi islomdan oldingi turkiy she’riyatda shakllangan hodisadir. Buning Adib Ahmad ijodida uchrashi qadimgi turkiy adabiyotdagi an’ananing keyingi davrlarda ham davom etganligidan dalolat beradi.

<sup>28</sup> Югнакий А. Ҳибат ул-ҳақойик. -Т.: Бадиий адабиёт, 1971. –Б. 53.

<sup>29</sup> Адабиёт назарияси. II томлик, II том. -Т.: Фан, 1978. –Б. 392.

Xullas, buddaviylik ta'sirida yaratilgan turkiy she'rlarni o'rganish ularga xos bo'lган quyidagi xususiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi:

- a) misra, bayt va bandlarda alliteratsiyaning yetakchiligi;
- b) takror so'zning qofiya vazifasini bajarishi;
- v) bandlararo qofiyalanishning mavjudligi.

Turkiy buddaviylik she'rlarining asosiy mazmuni budda g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat bo'lsa-da, bu she'rlarning orasida tabiatning go'zal tasviri madh qilingan, tabiat bilan inson ruhiyati o'rtasidagi botiniy bog'liqlik ko'rsatilgan misralarni ham kuzatamiz.

#### **Nazorat savollari:**

- 2.1. Qadimgi turkiy buddaviylik she'rlarini yuzaga kelish omillari haqida nimalar deya olasiz?
- 2.2. Buddaviylik adabiyoti qanaqa janrlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi?
- 2.3. Buddaviylik davrida yashab ijod qilgan qaysi shoirlarni bilasiz?
- 2.4. Buddaviylik she'riyatiga xos xususiyatlarni sanang.

#### **Amaliy mashg'ulot mavzusi: Buddaviylik ta'siridagi turkiy adabiyot**

**Darsning maqsadi:** Talabalarda turkiylarning buddaviylik adabiyoti namunalari xususida tasavvur uyg'otish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Turkiy buddaviylik adabiyoti namunalarining yuzaga kelish omillari haqida ma'lumot beradi.
2. Buddha g'oyalarining turkiy yozma adabiyot namunalarida qanday aks etganligini tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** Buddaviylik adabiyoti namunalari va ular haqidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Buddaviylikning turkiylar hayotida tutgan o'rni haqida so'zlang.
2. Buddaviylik oqimining turkiy yozma adabiyotga ko'rsatgan ta'siriga baho bering.

3. Qadimgi turkiy tarjima adabiyotining yuzaga kelishini tahlil qiling.
4. Buddaviylik adabiyotida qaysi janrlar imkoniyatidan kengroq foydalanilganligini aniqlang.
5. Buddaviylik adabiyoti namunalarini g‘oyaviy jihatdan o‘rganing.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017. B. 82-103.
2. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 81-90.
3. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 83-93.
4. Arat R.R. Eski türk şiiri. –Ankara: 1991

**Qo‘sishimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 139-199.
2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodи, 2006. B. 15-20.

**Amaliy mashg‘ulot mavzusi: “Oltin yoruq” dostoni**

**Darsning maqsadi:** “Oltin yoruq” dostonining mohiyati haqida tushunchalar hosil qilish.

**Identiv o‘quv maqsadalari:**

1. Dostonning mohiyati haqida so‘zlaydi.
2. Dostondagi afsonalarni tahlil qiladi.

**Kerakli jihozlar:** “Oltin yoruq” dostoni va u haqidagi ilmiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Singku Seli Tutung haqida ma’lumot bering.
2. “Oltin yoruq” dostonini tajrima qilishdan asosiy maqsad nima ekanligini izohlang.
3. “Shahzoda va bars” afsonasini tahlil qiling.
4. “Ku tay” afsonasiga baho bering.

5. “Oltin yoruq” dostonining bugungi kundagi ahamiyati haqida gapiring.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

“Oltin yoruq” dostonidagi afsonalarni o‘rganish.

1. Mag‘astvi obraziga baho bering.

2. Ku tay obrazini tahlil qiling.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 81-90

2. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B. 83-93.

3. Arat R.R. Eski türk şiiri. –Ankara: 1991

**Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л.: Наука, 1951. -С. 139-199.

2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006. B. 15-20.

**Amaliy mashg‘ulot mavzusi: Turkiy buddaviylik she’riyati**

**Darsning maqsadi:** Buddaviylik adabiyotining o‘ziga xos she’riyati to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish.

**Identiv o‘quv maqsadlari:**

1. Buddaviylik she’rlarini g‘oyaviy jihatdan tahlil qiladi.

2. Buddaviylik she’rlarida qo‘llanilgan poetik obrazlarga baho beradi.

**Kerakli jihozlar:** Buddaviylik she’rlaridan namunalar hamda ilmiy-ma’rifiy manbalar.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Bizgacha yetib kelgan buddaviylik she’rlari haqida ma’lumot bering.

2. Bu she’riyatga buddaviylik dinining ko‘rsatgan ta’sirini izohlang.

3. Buddaviylik oqimi ta’siridagi she’rlarni tahlil qiling.

4. Sakkizlik shaklida yaratilgan she’rlarga baho bering.

5. Buddaviylik she'rlari qadimgi turkiy adabiyotda qanday o'ringa ega ekanligini aniqlang.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

Turkiy buddaviylik she'rlarini tahlil qilish.

1. Buddaviylik she'rlariga xos xususiyatlarni aniqlang.

2. Buddaviylik she'rlariga baho bering.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Toshkent, Fan, 2003. B 41-44.

2. Arat R.R. Eski türk şiir. Ankara: 1991

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2003. B. 28-37.

2. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodи, 2006. B. 55-60.

## XULOSA

O‘zbek adabiyoti tarixiga nazar solganda, shubhasiz, uning jahondagi ko‘pgina xalqlar adabiyoti kabi boy adabiy merosga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bu adabiyotning ildizi uzoq davrlarga borib taqaladi. Uning shakllanishi va taraqqiyoti bevosita qadimgi turkiy adabiyot bilan mustahkam bog‘liq. Chunki o‘zbek adabiyoti qadimgi turkiy adabiyot negizida rivoj topgan. “Qadimgi turkiylar davridagi adabiy an’ana izsiz yo‘q bo‘lib ketmadi, balki o‘zida murakkab estetik-adabiy tizimni gavdalantiradigan mumtoz turkiy she’riyatga kirib keldi”<sup>30</sup>. Qadimgi turkiy moniylik she’rlari, turkiy buddaviylik adabiyoti, O‘rxun-Enasoy obidalari, “Devonu lug‘otit turk”da saqlanib qolgan badiiy ijod namunalarining shakliy-poetik xususiyatlari ilk klassik davrdagi turkiy adabiyotda davom etganligi turkiy adabiyotning uzlusiz ravishda taraqqiyotda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Biz mazkur o‘quv qo‘llanmada qadimgi turkiy adabiyot bilan ilk klassik davr adabiyotining shakliy-poetik xususiyatlaridagi uzlusizligini ko‘rsatishga harakat qildik, xolos. Kelgusida har bir diniy muhitda – moniylik, budda, shomonlik oqimlari ta’sirida yaratilgan ijod namunalarini alohida maxsus yo‘nalishlarda tadqiq etish o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayni paytda bu adabiy yo‘nalishlar o‘rtasidagi o‘ziga xoslik va aloqalarning ildizlarini o‘rganish ham adabiyotshunoslikning navbatdagi vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Turkiy adabiyotda she’r qadimdan mavjud. She’rning shakllanishi turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan. Bu xususiyat uning janrlar tizimida yaqqol ko‘rinadi. Shunga ko‘ra, o‘quv qo‘llanmadagi asosiy e’tibor qadimgi turkiy adabiyotning taraqqiyoti masalalariga qaratildi.

O‘quv qo‘llanmada bildirilgan fikr va mulohazalarni qisqa tarzda quyidagicha xulosalash mumkin:

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi janrlar poetikasini o‘rganish ko‘pgina janrlarning tashqi ta’sirlarsiz turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ular asosan qadimgi turkiy adabiyotda aralash holda mavjud bo‘lsa-da, keyingi davrlardagi taraqqiyot janrlarning alohida shakliy va

<sup>30</sup> Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. -М.: 1982. -С. 5.

g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammallahishiga zamin bo‘ldi. Albatta, bunda xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi mavjud an’analari muhim rol o‘ynadi.

She’r turkiy xalqlar adabiyotida qadimdan keng qo‘llanilib keladi. Ularning turkiy yozma adabiyotdagi ilk namunalari Moniy va Buddha muhitida yaratilgan she’riyatda uchraydi. Mazkur diniy oqimlar ta’siridagi aksariyat she’rlarning to‘rtliklar tarzida yaratilishi turkiy xalqlar og‘zaki va yozma adabiyotining qadimiyligi an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Qadimgi turkiy moniylik she’riyatidagi badiiy tasvir vositalarini o‘rganish ularning turkiy adabiyotdagi shakllanish jarayonini tasavvur qilish imkonini beradi. Qadimgi turkiy adabiyotdagi mavjud badiiy tasvir vositalarining ilk klassik davr adabiyotida ham davom etganligi turkiy adabiyotning uzluksiz taraqqiyotda bo‘lganligidan dalolat beradi. Faqat qadimgi turkiy adabiyotdagiga qaraganda keyingi davrlarda badiiy tafakkur rivoji bilan bog‘liq ravishda ularning imkoniyatlari kengaya borganligi ko‘rinadi.

## Test savollari

<b>1. Dengiz xon, noma, tangri Ulgen obrazlari qaysi qadimgi turkiy afsonada keltirilgan?</b>
A. To‘fon
B. Olamning yaratilishi
C. Odamning yaratilishi
D. Skiflar to‘g‘risidagi afsona
<b>2.“Azalda faqat suv bor edi. Yer, osmon, oy va quyosh yo‘q edi. Yana tangri bilan yana bir “odam” bor edi...”. Mazkur matnlar qaysi qadimgi turkiy afsonaga aloqador?</b>
A. Odamning yaratilishi
B. Olamning yaratilishi
C. To‘fon
D. Skiflar to‘g‘risidagi afsona
<b>3. Qadimgi mif va afsonalarning yaratiliishdan asosiy maqsad nima?</b>
A. Olamni bilishga bo‘lgan intilish
B. Hayotiy zarurat
C. Folklorshunoslarning tashabbusi bilan yaratilgan
D. Barcha javoblar to‘g‘ri
<b>4. “Odamning yaratilishi” afsonasidagi Ayva ismining ma’nosini to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.</b>
A. Oy yuzli
B. Behi
C. Ma’nosini noma’lum
D. Barcha javoblar to‘g‘ri
<b>5. “Erguna kun” atamasining nomi to‘g‘ri izohlangan javobni toping.</b>
A. Tik qoya
B. Qorli tog‘
C. Muzli tog‘
D. Barcha javoblar to‘g‘ri
<b>6. “Xuastuanift” asarining to‘liq yig‘ma matni kim tomonidan va qachon yaratilgan?</b>
A. L.Dmitrieva, 1963
B. S.E.Malov, 1963
C. V.Radlov, 1960
D. B.To‘xliev, 1975
<b>7. “Xuastuanift” ning qaysi nusxasi eski uyg‘ur yozuvida bitilgan?</b>
A. Sankt – Peterburg nusxasi
B. Moskva nusxasi
C. London nusxasi
D. Toshkent nusxasi
<b>8. Moniy ibn Fatak yaratgan asarlarni belgilang.</b>
A. “Barhayot injil”, “Shapurakan”

- B. "Shapurakan", "Xuastuanift"
- C. "Oltin yorug", "Sirlar kitobi"
- D. To'g'ri javob berilmagan

**9. "Xuastuanift"ning 9-bo'limida nima haqida fikr yuritiladi?**

- A. Moniy jamoasi a'zolari bajarishi lozim bo'lgan 10 xil nazr turlari
- B. To'rtta xudoga har kuni ijro etilishi kerak bo'lgan madhiya to'g'risida
- C. Moniy uchun ado etilishi zarur bo'lgan 7 xil nazr to'g'risida
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**10. Qadimgi turkiy she'riyatga xos xususiyatlarni aniqlang.**

- A. Alliteratsiya
- B. Qofiya
- C. Hijolar tengligi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**11. O'rxun yodgorliklarida yetakchi bo'lgan janrni aniqlang**

- A. Madh
- B. Yig'i
- C. To'rtlik
- D. Marsiya

**12. Enasoy yodgorliklari uchun yetakchi bo'lgan janrni aniqlang.**

- A. Yig'i
- B. To'rtlik
- C. Madh
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**13. O'rxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy she'riyatining namunasi sifatida baholagan olimni toping.**

- A. I.V.Stebleva
- B. N.Rahmonov
- C. A.Qayumov
- D. S.E.Malov

**14. Qadimgi turkiy buddaviylik she'riyati namoyandalarini belgilang.**

- A. Ki-ki, Asing tutung
- B. Anringur tigin, Kalim keysi
- C. Chisuya tutung, Yo'lig' tegin
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**15. "Yer-suv quti qochadi derlar, o't-suv quti zorlanar derlar..." misralari qaysi she'rdan olingan?**

- A. "Do'zax tasviri" she'ri
- B. "O'lim tasviri" she'ri
- C. "Buyuk iloh" she'ri
- D. Aprinchur tigin she'ri

**16. "Asl, dono insonlar to'planaylik, Tangrining bitigini biz eshitaylik..." misralari qaysi qadimgi turkiy she'rdan olingan?**

- A. "O'lim tasviri" she'ri

B. “Buyuk iloh” she’ri

C. “Do‘zax tasviri” she’ri

D. Apringur tigin she’ri

**17. “O’n minglarcha yildan beri, Imon-la, hurmat-la egilurmiz...” misralari qaysi qadimgi turkiy she’rga miansub?**

A. “Buyuk iloh” she’ri

B. “O‘lim tasviri” she’ri

C. “Do‘zax tasviri” she’ri“

D. Apringur tigin she’ri

**18. “Oltin yorug” dostonini qaysi o‘zbek olimi hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdil qilgan va kitob qachon nashr etilgan?**

A. N.Rahmonov, 2009, 2013

B. B.To‘xliev, 2008, 2014

C. N.Rahmonov, 2008, 2012

D. N.Rahmonov, 2007, 2011

**19. O‘rxun-Enasoy obidalari turkologiyada qaysi diniy oqimning mahsuli sifatida o‘rganiladi?**

A. Qadimgi turkiy shomonlik oqimi

B. Qadimgi turkiy buddaviylik oqimi

C. Qadimgi turkiy moniylik oqimi

D. To‘g‘ri javob berilmagan

**20. “Falakday xudodan bo‘lgan turk dona xoqoni bu taxtga o‘tirdim. So‘zimni tugal eshitgin...” matn qaysi toshbitikdan olingan?**

A. Kul tigin

B. Bilga xoqon

C. To‘nyuquq

D. Moyun chur

**21. “Yuqorida ko‘k osmon, pastda qo‘ng‘ir er yaratilganda, ikkisining o‘rtasida inson bolalari paydo bo‘lgan...” matni qaysi bitigtoshdan olingan?**

A. Kul tigin

B. Bilga xaqon

C. To‘nyuquq

D. Moyun chur

**22. “...Qorni yorib, Ko‘gman yishga ko‘tarilib, qirg‘iz xalqini uyquda bosdim. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildim...” matni qaysi bitigtoshga aloqador?**

A. Bilga xoqon

B. Kul tigin

C. To‘nyuquq

D. Moyun chur

**23. “Turk xalqi o‘ldi, yo‘q bo‘ldi. Turk sir xalqi erida birorta ham urug‘ qolmadi...” matni qaysi bitigtoshdan olingan?**

A. To‘nyuquq

B. Bilga xaqon

C. Kul tigin

D. Moyun chur

**24. “Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzushga oson emish...” matni qaysi bitigtoshdan olingan?**

A. To‘nyuquq

B. Bilga xoqon

C. Kul tigin

D. Moyun chur

**25. “Turk beklari turkcha otini tashladi, Tabg‘ach beklarining tabg‘achcha otini qabul qilib, Tabg‘ach xoqoniga qaram bo‘ldi...” manti qaysi bitigtoshga aloqador?**

Kul tigin

Bilga xoqon

To‘nyuquq

Moyun chur

**26. “Yuqorida tangri, muqaddas yer-suv, otam xoqon ruhi rozi bo‘lmadi. To‘qqiz o‘g‘uz xalqi erini, suvini tashlab Tabg‘achga ketdi...” matni qaysi bitigtoshga aloqador?**

A. Bilga xoqon

B. Kul tigin

C. To‘nyuquq

D. Moyun chur

**27. “Yigit ovga bordi. Tog‘da yiqildi. Erk – Xudoda deydilar, bilib qo‘ygin: bu - ...” nuqtalar o‘rniga mos javobni tanlang**

A. Dahshat

B. Yomon

C. Juda yomon

D. Yaxshi

**28. “Quzg‘unni daraxtga bog‘ladi. “Qattiq bog‘la, yaxshiroq bog‘la”, deyishadi. Bilib qo‘ying: bu - .....”. “Irq bitigi”dan olingan matndagi nuqtalar o‘rniga mos javob tanlang.**

A. Yomon

B. Yaxshi

C. Juda yomon

D. Juda yaxshi

**29. “Ku tay” afsonasi qaysi shahardagi voqealarni o‘z ichiga oladi?**

A. Inchiyu

B. Chang

C. Su

D. To‘g‘ri javob berilmagan

**30. “Oltin yorug“” dostoni necha bo‘limdan iborat?**

A. 10 bo‘limdan

B. 20 bo‘limdan

C. 30 bo‘limdan

D. 25 bo‘limdan

**31. “Qadimgi turkiy adabiyot” atamasi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?**

- A. Eng qadimgi davrlardan 12 asrgacha bo‘lgan davrni
- B. 6-8 asrlarni
- C. Eng qadimgi davrdan 8-asrgacha bo‘lgan davrni
- D. To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

**32. Moniy ibn Fatak qaysi yillari yashab o‘tgan?**

- A. 216-276
- B. 316-376
- C. 116-176
- D. 215-250

**33. Turkiy she’riyatning bizgacha etib kelgan ilk namunalari qaysi manbalarda uchraydi?**

- A. Moniy va budda muhitida
- B. Moniy va Shomonlik muhitida
- C. Buddha va Shomonlik muhitida
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

**34. Moniylik oqimi qaysi davlatda rasmiy davlat dini darajasiga ko‘tarildi?**

- A. Uyg‘ur xoqonligida
- B. Turk xoqonligida
- C. Eronda
- E. Xitoyda

**35. Qadimgi turkiy moniylik she’rlaridan qanchasining muallifi ma’lum ular kimning qalamiga mansub?**

- A. 2 ta, Aprinchur tigin
- B. 4 ta, Singku Seli tutung
- C. 2 ta, Asig tutung
- D. 10 ta, Pratyaya Shiri

**36. Moniylik she’rlarida qaysi she’riy janr etakchilik qiladi?**

- A. To‘rtlik
- B. Madhiya
- C. Madh
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

**37. Nima uchun qadimgi turkiy adabiyotdaga badiiy tasvir vositalari arabcha atamalar bilan nomlanadi?**

Islomdan oldin adabiyotshunoslik rivojlanmagani uchun  
Bu atamalar olimlar tomonidan shunday qabul qilingan  
Qadimgi turkiylarning xohishiga ko‘ra  
Barcha javoblar to‘g‘ri

**38. “Do‘zax tasviri” nomli she’rda qaysi badiiy tasvir vositasi ko‘proq ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan?**

- A. Jonlantirish
- B. Takrir
- C. Mubolag‘a

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

**39. “Burnidan bo‘z bulut chiqar derlar, Bo‘g‘zidan qop-qora tutun ko‘tarilar derlar...” she’ridagi tasvir qaysi obrazga xos?**

A. Shayton

B. Narigi dunyo

C. Zervan

D. Davlar

**40. A.Steyn topgan Irq bitigi qaysi adabiyotga mansub hisoblanadi?**

A. Qadimgi turkiy shomonlik adabiyoti

B. Qadimgi turkiy moniylik adabiyoti

C. Qadimgi turkiy buddaviylik adabiyoti

D. Qadimgi turkiy xristiyanlik adabiyoti

**41. “Sergaplik rangi” she’rining tarkibini aniqlang.**

A. 60 misra, 15 band

B. 80 misra, 20 band

C. 50 misra, 10 band

D. 40 misra, 12 band

**42. Bizgacha qadimgi turkiy buddaviylik she’rlaridan qanchasi yetib kelgan va bu haqda ma’lumot bergen olimni aniqlang.**

A. 1500 misra, A.Yu.Tugusheva

B. 2000 misra, N. Rahmonov

C. 1500 misra, A.Qayumov

D. 1000 misra, I.Stebleva

**43. “O‘rxun va Enasoy yodgorliklarida buddizimning ta’siri sezilmaydi”. Mazkur fikrlar qaysi olimga tegishli?**

A. N.Rahmonov

B. R.Arat

C. A.Qayumov

D. I.Stebleva

**44. “Shahzoda va bars” afsonasida qaysi janrni uchratish mumkin?**

A. Yig‘i

B. To‘rtlik

C. Madh

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

**45. To‘nyuquq qaysi turk xoqonligida yashagan?**

A. Ikkinci turk xoqonligi

B. Birinchi turk xoqonligi

C. Uyg‘ur xoqonligi

D. Tabg‘ach davlatida

**46. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘rgangan o‘zbek olimlarini aniqlang.**

A. A.Qayumov, A.Rustamov, N.Rahmonov

B. N.Rahmonov, B.To‘xliev, A.Hayitmetov

C. B.To‘xliev, I.Haqqulov, N.Rahmonov

Barcha javoblar to‘g‘ri

**47. “Chako‘l yodnomasi” qaysi janr asosida yuzaga kelgan?**

- A. Yig‘i
- B. To‘rtlik
- C. Madh
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

**48. Alp Er To‘nga haqidagi marsiya to‘rtliklarini birlashtirgan olimni aniqlang.**

- A. Fitrat
- B. N.Rahmonov
- C. R.Arat
- D. I.Stebleva

**49. “Ku tay” afsonasidagi asosiy voqealar qaerda bo‘lib o‘tadi?**

- A. Narigi dunyoda
- B. Inchuyi shahrida
- C. Xitoyda
- D. To‘g‘ri javob berilmagan

**50. Qadimgi turkiy she’riyatda eng ko‘p uchraydigan badiiy tasvir vositasini aniqlang.**

- A. Tavze’
- B. Tashxis
- C. Mubolag‘a
- D. Tashbeh

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017.
2. Qadimgi hikmatlar. (Tuzuvchi: N.Rahmonov) –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
3. Qayumov A. Qadimiyat obidalari.–T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, B.184.
4. Qayumov A. Va boshqa. Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: Yozuvchi, 2000. B.231.
5. Древнетюркский словарь, Л.: Ленинград. отд. 1969. стр. 676.
6. Turon Usmon. Tirkiy xalqlar mafkurasi. Risola (tarjimon U.Abduvahob). – T.: Cho‘lpon, 1995. B.104.
7. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982. B. 168.
8. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. Toshkent, Navoiy universiteti, 2019. B.128
9. Малов С.Е. Памятники древнетюркской писменности. – М., Л.: Наука, 1951. стр. 452.
10. Rahmonov N. Ko‘hna bitiktoshlar. – T.: Adabiyot va san’at, 1991. B. 111.
11. Rahmonov N.Turkiy xoqonligi, - T.: Xalq merosi, 1993. B. 144.
12. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – T.: Xalq merosi. 2002, B. 128.
13. Rahmonov N.,Matboboev B. . O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari. – T.: Fan, 2006. B. 66.
14. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. B. 224.
15. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в ранне-классисческий период. –М.: Наука, 1976. стр. 215.
16. Стеблева И.В. Развитие тюкских поэтических форм в X веке. – М.: 1971. стр. 299.
17. Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. Москва, Восточная литература, 2007.
18. Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Москва, Восточная литература, 2012.
19. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. T.: Fan, 2003. B.332.
20. Arat R.R. Eski türk şiir. –Ankara: 1991.
21. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. B. 60.

22. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
23. [www.genhis philol.ru](http://www.genhis.philol.ru)
24. [www.lingvo-online.ru](http://www.lingvo-online.ru)
25. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)
26. [www.globalterminology.com](http://www.globalterminology.com)
27. [www.basiccomputerterminology.com](http://www.basiccomputerterminology.com)
28. [www.tilde.com](http://www.tilde.com)
29. [www.oxfordhandbooks.com](http://www.oxfordhandbooks.com)

## **MUNDARIJA**

1. Kirish.....	3
2. Islomgacha bo‘lgan davr adabiyoti.....	5
3. Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.....	11
4. Qadimgi turkiy moniylik she’rlari badiiyati.....	21
5. Fol kitoblari.....	33
6. Shomonlik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.....	41
7. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning janr xususiyatlari.....	53
8. Buddha oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.....	68
9. Xulosa.....	79